O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“YARIMO‘TKAZGICHLAR

FIZIKASI VA ULAR ASOSIDAGI QURILMALARNING

ZAMONAVIY MUAMMOLARI”

MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

TO’PLAMI

1-SHO‘BA: YARIMO‘TKAZGICHLARDA FOTOELEKTRIK HODISALAR

Namangan, 2023-yil.

QO’MITA A’ZOLARI

B.S. Yuldashev	**Rais, akademik, O’zR Fanlar Akademiyasi prezidenti**
I.Y. Abduraxmonov	**Rais o’rinbosari, O’zR Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar vaziri**
S.T. Turg’unov	**rektor. prof.(NamDU)**
O.O. Mamatkarimov	**rektor. prof.(NamMTI)**
Sh.T. Ergashev	**rektor. prof.(NamMQI)**
S.A. Baxramov	**akademik (O’zR FA PLTI)**
S.Z. Zaynobiddinov	**akademik (AndDU)**
A.T. Mamadalimov	**akademik (O’zMU)**
R.A. Muminov	**akademik (O’zR FA FTI)**
X.K. Olimov	**f.-m. f.d., prof. (O’zR FA FTI)**
I.A. Sadiqov	**f.-m.-f.d., prof. (O’zR FA IYaF)**
X.B. Ashurov	**f.-m. f.d., prof. (O’zR FA PLTI)**
G. Gulyamov	**f.-m. f.d., prof.(NamQI)**
R.Ya. Rasulov	**f.-m. f.d., prof. (FarDU)**
P.N. Usmanov	**f.-m. f.d., prof.(NamMTI)**
I.N. Karimov	**f.-m. f.d., prof. (AndDU)**
U.M. Turdaliev	**f.-m. f.d., prof. (AndDU)**
N.F. Zikrillaev	**f.-m. f.d., prof. (TDTU)**
R. Ikramov	**f.-m. f.d., prof. (NamMTI)**
SH.K. Nematov	**f.-m. f.d., prof. (TDTU)**
E.Z. Imamov	**f.-m. f.d., prof. (TATU)**
M.G’. Dadamirzayev	**f.-m. f.d., dots. (NamMQI)**
N. Shariboyev	**f.-m. f.d., dots. (NamMTI)**
U. Erkaboyev	**f.-m. f.d., dots. (NamMTI)**
B.T. Abdulazizov	**f.-m. f.d., dots. (NamDU)**
G’.B. Eshonqulov	**PhD, dots. (O’zMU)**
Q. Umarov	**f.-m. f.d., dots. (НамMTI)**
U.T. Kurbanov	**f.-m. f.d., (O’zRFAYFI)**
Y.V. Yavidov	**f.-m. f.d., prof. (QDPI)**
K.A. Ismaylov	**f.-m. f.d., prof. (QDU)**
H. Qo’chqorov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
P. Baymatov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
A. Po’latov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
U. Boboho’jayev	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
H. Abdullayev	**f.-m. f.n., dots. (NamMTI)**
X. Mavlyanov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
A. Xolmirzayev	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
I. Zohidov	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
M. Ergasheva	**f.-m. f.n., dots. (NamDU)**
A. Mamadjonov	**f.-m. f.n. (NamMTI)**
M. Nuriddinova	**f.-m. f.n. (NamMTI)**
S. Boydedayev	**f.-m. F.n. (NamMQI)**
A. Nabiyev	**PhD, dots. (NamDU)**
R. Jalalov	**PhD, dots. (NamDU)**
O. Ismanova	**PhD, dots. (NamDU)**

Sh. Inoyatov	**PhD (NamDU)**
M. Imomov	**PhD (NamDU)**
B. Qo’chqarov	**PhD (NamMTI)**
D. Alijonov	**PhD (NamDU)**
A. Davlatov	**PhD (NamDU)**
O. Yunusov	**O’qituvchi (NamDU)**
A. Karimov	**O’qituvchi (NamDU)**
U. Turdaliyev	**O’qituvchi (NamDU)**
M. Usmanov	**O’qituvchi (NamDU)**
I. Voxobjonov	**O’qituvchi (NamDU)**

TASHKILIY QO‘MITA

1. S.T. Turg‘unov – Namangan davlat universiteti rektori, p.f.d., professor;
2. Sh.N. Ataxanov - Namangan davlat universiteti Ilmiy ishlar va Innovatsiyal bo’yicha prorektor;
3. M. Dadamirzayev – Namangan muhandislik qurilish instituti, f.-m. f. (DSc), dotsent
O.T. Ismanova – Namangan davlat universiteti, Fizika fakulteti dekani, f.-m.f.(PhD), dotsent;
4. B.T. Abdulazizov – Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasi mudiri, f.-m.f. (DSc), professor v.b.;
5. Sh.T. Inoyatov– Namangan davlat universiteti Fizika o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, f.-m.f (PhD);
6. S.R. Boydedayev– Namangan muhandislik qurilish instituti, f.-m. f.n., dotsent
7. P.N. Usmanov– Namangan muhandislik texnologiyalar instituti f.-m. f.d., prof.;
8. A.A. Xolmirzayev– Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
9. U.S. Boboxo‘jayev – Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
10. X.O. Qo‘chqorov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
11. I.O. Zoxidov - Namangan davlat univesiteti p.f.n., dotsent;
12. M.A. Ergasheva - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
14. A.A. Po‘latov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
15. P.J. Boymatov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.n., dotsent;
16. A.B. Nabiyev - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.(PhD), dotsent;
17. A.B. Davlatov - Namangan davlat univesiteti f.-m.f.(PhD), katta o‘qituvchi;
18. D.A. Alijanov - Namangan davlat univesiteti p.f. (PhD) , katta o‘qituvchi;
19. N. Xolboyeva - Namangan davlat univesiteti, katta o‘qituvchi;
20. J. Soyipov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
21. J. Qalandarov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
22. O. Yunusov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
23. S. To’raboyev - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
24. A. Karimov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
25. U. Turdaliyev - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
26. M. Usmanov. - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
27. I. Voxobjonov - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi;
28. N. Mavlonova - Namangan davlat univesiteti, o‘qituvchi.

Sho’ba raisi: dots. **X.O. Qo‘chqorov**

Sho’ba kotibi: dots. **A.B. Nabiyev**

KREMNIYLI FOTOELEKTRIK p-n-STRUKTURALARGA TEMPERATURANING TA’SIRI

J. Ziyoitdinov, SH. Tadjibaeva, U. Karimberdiev, M. Abduqaxxorova
Andijon davlat universiteti

Energiya manbalariga bo’lgan talabning doimiy o’sishi va global ekologik muammolarning keskinlashishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadal qo’llashni kengaytirishni talab qilmoqda. Fotoelektrik energiya o’zgartirgichlar eng istiqbolli va ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisoblanadi. Kremniyli quyosh elementlarilarining samaradorligi bevosita yoritilganlik darajasi va atrof muxit temperaturasiga bog’liq. Har bir quyosh elementidan ko’proq energiya fotoelektrik energiya ishlab chiqarish uchun kontsentratorning katta yuzasdan quyosh elementlarining kichik yuzasiga quyosh nurlanishi kontsentratsiyasi yordamida yoritilganlik darjasini oshirish talab etiladi. Bunday usul qimmatbaho quyosh elementlarilarining yuzasini qisqartirishga imkon beradi. Lekin bunda quyosh elementlari temperaturasining sezilarli oshishi va ularning samaradorligi kamayishi kuzatiladi. SHuning uchun quyosh elementlarining asosiy fotoelektrik parametrlariga temperatura ta’sirini o’rganish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ushbu ishda “PVLighthouse” dasturiy tizimi yordamida olingan kremniydagi zaryad tashuvchilarning asosiy kinetik parametrlariga temperaturaning ta’sirini o’rganish natijalari keltirilgan va muhokama qilingan. Yarimo’tkazgichli kremniyning boshlang’ich parametrlarini tanlash uchun samarali quyosh elementlari ishlab chiqarishga mos parametrlar talablari mezonlariga asoslanilgan. Legirlash darajasi ($10^{14} \div 10^{18}$) sm^{-3} oralig’ida tanlangan va temperatura (250 ÷ 350) K oralig’ida o’zgartirilgan.

Birlamchi natijalar sifatida zaryad tashuvchilarlarning monokristall kremniydagi kinetik parametrlari: kontsentratsiyalar, diffuziya koeffitsienti, diffuziya uzunligi, harakatchanligi, asosiy va asosiy bo’lmagan ZTlarning yashash vaqtlari hamda elektr o’tkazuvchanligi, taqiqlangan zona kengligining legirlash darajasi yoki asosiy zaryad tashuvchilarkontsentratsiyasiga nisbatan o’zgarishi kabi bog’liqliklar olingan. Ko’rsatilgan parametrlarning temperatura va zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasiga bog’liq nomogrammalari qurilgan. Olingan natijalar quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi: 1) n-tipli va p-tipli kremniy uchun elektronlarning harakatchanligi kovaklardan 2,8-3 marta yuqori; 2) n-tipli va p-tipli kremniy uchun asosiy va asosiy bo’lmagan zaryad tashuvchilarlarning harakatchanligi temperatura ortishi bilan kamayadi; 3) asosiy zaryad tashuvchilarlar kontsentratsiyasining ortishi bilan ularning temperatura o’zgarishlariga sezgirligi kamayadi. Elektronlar va kovaklar uchun hisoblashda ham kremniy taqiqlangan zonasi kengligining temperaturaga bog’liq o’zgarishi bir xil ekanligini ko’rish mumkin.

Agar zaryad tashuvchilarning kinetik parametrlari to’plami ko’rib chiqilsa, temperaturaning zaryad tashuvchilarning effektiv massasiga ta’siri o’rganilmaganligini ta’kidlash mumkin. Zaryad uzatish modelida elektronlar va kovaklarning tok zichligi ularning effektiv massasining fazoviy o’zgarishi bilan aniqlanadi. Biroq, "*PVlighthouse*" dasturiy ta’minot tizimida bunday hisoblash usuli hisobga olinmagan. SHu bilan birga kremniydagi effektiv massaning (elektronlar va kovaklar uchun hisoblangan) temperaturaga bog’liq o’zgarishini ADU qayta tiklanuvchi energiya manbalari laboratoriyasi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi dasturiy tizim yordamida o’rganish mumkin. Ushbu hisob-kitobning dastlabki natijalari 1-rasmda ko’rsatilgan. Bunda elektronlarning effektiv massasi emitter qatlamga tegishli (n-tipda, 10^{17} sm^{-3} kontsentratsiyada) va kovaklarning effektiv massasi asosiy qatlamga tegishli (p-tipda 10^{15} sm^{-3} kontsentratsiyada). Zarrachaning effektiv massasi

zarracha kristall potentsialining davriy sohasida harakatlanganda paydo bo’ladigan dinamik massasidir. Effektiv massa ifodasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$m_{n,p} = \hbar^2(d^2E/dk^2)\text{-}1, \quad (4)$$

bu yerda $\hbar$ – Plank domiysi, k – to’lqin vektori, E – elektr maydon kuchlanganligi.



1-rasm. n-tipli kremniy (donor-fosfor) da effektiv massaning (elektronlar va kovaklar uchun) temperaturaga bog’liqligi.

Shunday qilib, birinchi marta kremniy strukturalarining emitter va asosiy qatlamlaridagi elektron va kovaklarning effektiv massasining bog’liqliklari aniqlandi, ularning o’zaro munosabati yarimo’tkazgichlar fizikasi nazariyasi doirasida talqin qilinadi.

“Sentaurus” tizimi yordamida kremniyli p-n-strukturalarining xarakteristikalariga temperaturaning ta’sirini hisoblash natijalari qiziqish uyg’otadi. Kremniyli quyosh elementlarilarining temperatura xususiyatlarini o’rganishda *250÷350 K* temperatura oralig’i ko’rib chiqildi, bu yer usti va kosmik qo’llanishlar uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Bu ishda aniqlangan kremniyli strukturalarning asosiy fotoelektrik parametrlarining termik koeffitsientlarini tajriba ma’lumotlari bilan taqqoslash ularning qoniqarli muvofiqligini ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. R.Aliev, J.Ziyaitdinov, N.Yuldasheva, M.Nosirov Stabilizatsiya vысokoy effektivnosti kremnievых solnechnых elementov vnedreniem nanochastits nekotorых metallov. // Materialы Rossiysko – Uzbekskogo mejdunarodnogo nauchno-metodicheskogo seminara «Vozobnovlyaemые istochniki energii i ustoychivaya okrujayuщaya sreda», Voronej, 15-22 okt., 2019 g. Andijan, S. 118-124.

2. J.J.Gulomov, J.N.Ziyoitdinov, I.M.Madaminova Modeling the temperature influence on silicon bases solar cells by Sentaurus TCAD. // “Molodoy uchyonыy” (“Young Scientist”). Rossiya. 2020, CHastь I, № 17, S. 1-4. .[№18 Ulrich’s Periodicals Directory].

ОПТОЭЛЕКТРОННОЕ УСТРОЙСТВО КОНТРОЛЯ ВЛАЖНОСТИ ХЛОПКА–СЫРЦА

Г. Кулдашов[1], Ж. Болтабоев[2].
Национальный научно-исследовательский институт возобновляемых источников энергии.
НИИ Физики полупроводников и микроэлектроники.
Email: kuldashov.abbos@mail.ru

В течение последних десятилетий повышению качества продуктов, получаемых из хлопка-сырца, организацию его хранения и соблюдения оптимальных режимов технологии переработки на всех этапах предъявляются большое требование. Качество выпускаемой продукции из хлопка - сырца является ее основной характеристикой, а также наиболее эффективным средством удовлетворения растущих запросов потребителей. Входной контроль поступающего на предприятия хлопкового сырья имеет особую актуальность для обеспечения качества и конкурентоспособности текстильных изделий, поскольку сырье является неотъемлемой частью готовой продукции, а стоимость волокна занимает значительную долю в ее себестоимости. Правильное складирование и выбор технологической переработки зависят от качественных показателей хлопка-сырца, а именно, его влажности, сортное, селекционной разновидности. Ненадлежащий контроль этих параметров приводит к не желаемым последствиям, а повышение качество материалов, получаемых из хлопка сырца возможно при правильной организации его хранения и соблюдения оптимальных режимов технологии переработки на всех этапах.

В мировой торговли хлопковое волокно является важнейшим стратегическим товаром, анализ существующих стандартных методов определения влажности, засоренности, сорта хлопка-сырца показал, что основным их недостатком является низкая экспрессность и невозможность автоматизации контроля параметров хлопка-сырца при его приемке. Применяемые в настоящее время методы и приборы контроля качественных показателей хлопка-сырца не отвечают требованиям экспрессности, хотя и обладают необходимой точностью измерений малых пробах.

В Республике Узбекистан одно из важнейших мест в экономике занимает хлопководство и связанная с ним перерабатывающая промышленность. В результате осуществляемых правительством масштабных экономических реформ, в том числе по модернизации и техническому перевооружению отраслей, кардинально изменился подход к выращиванию, переработке хлопка-сырца и производству из него волокна, отвечающего высоким международным стандартам. Увеличение производства и ускорение темпов переработки хлопка предъявляют все более высокие требования, как к технологическому оборудованию, так и к прибором контроля качественных показателей сырья, полуфабрикатов, и готовой продукции. Поэтому разработка устройств контроля качества хлопка-сырца, основанных на современных методах измерения, является актуальной задачей.

В настоящее время имеется целый ряд методов и устройств для контроля качества хлопка- сырца. Однако они не обеспечивают необходимой точностью и чувствительности измерений. Необходимы новые методы и устройства, в том числе приборы контроля качества хлопка-сырца, отвечающие требованиям экспрессности. Известные кондуктометрические, диэлькометрические и СВЧ методы не обеспечивают необходимой точностью и чувствительности измерений. Влажность являются характеризующим показателем качества хлопка-сырца, влияющим на его товарную и

технологическую ценность. Для контроля влажности хлопка – сырца наибольший интерес представляют инфракрасные (ИК) фотометрические приборы, в основу которых положено измерение избирательного поглощения влагой ИК - излучения определенной длины волны, либо отраженного поверхностью исследуемого вещества или материала, либо проходящего через вещество. Для создания ИК влагомеров наиболее перспективна ближняя ИК область 0,8...6,1 мкм, в которой влага имеет ряд полос поглощения разной интенсивности [1].

Хлопок – сырец обладает определенной гигроскопичностью и, следовательно, поглощают влагу из внешней среды. Из спектральных характеристик, показанных на рис.1, следует, что при различных значениях влажности изменяется наклон спектральных характеристик.

Анализ спектральных характеристик показал, что полосы поглощения лежат в пределах 0,76...0,97 и 1,19...1,94 мкм [2].



Рис.1. Спектральные характеристики сухого (1) и влажного (2) хлопка - сырца

В спектральном диапазоне 1,9…2,1 мкм существуют линии поглощения паров воды. Предложено оптоэлектронное устройство для контроля влажности хлопка – сырца, в нем в качестве опорного канала использованы светодиоды со спектрами излучения 2,2 мкм, а в качестве измерительного канал светодиоды со спектрами излучения 1,94 мкм.

На рис.2 приведена блок схема оптоэлектронного двухволнового устройства, где 3Г-задающий генератор, РИ- делитель импульсов, ЭК1, ЭК2 – первый и второй экстр ключи, ИД1, ИД1-излучающий диод на опорной длине волне, ИД2 излучающий диод на измерительной длине волны, КО- контролируемый объект, ФП-фотоприёмник, МШ- малошумящий усилитель, УН- усилитель напряжения, АК-аналоговый коммутатор.

Характерными особенностями устройства для контроля влажности хлопка - сырца является высокая избирательность, чувствительность, точность и воспроизводимость измерений, а также возможность непрерывного неразрушающего контроля и экспрессность анализа.



Рис.2. Блок схема оптоэлектронного устройства для контроля качества волокнистых материалов

Литература

1. Демьянченко М.А. Поглощение инфракрасного излучения в многослойной болометрической структуре с тонким металлическим поглотителем // Оптический журнал. 2017. Том 84. С. 48 – 56.
2. Кулдашов О.Х., Мамарозиков Ф.Д., Кулдашов Г.О., Муминов Ж. Оптоэлектронное устройства для контроля влажности хлопка сырца // Приборы. 2018. № 12(122). С.15-20.

LOYIHA ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Sh.R. Qo‘qonboyeva
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

.

Ma’lumki, bugungi kunda butun dunyoda barcha sohalarda keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga mos ravishda respublikamizda ham barcha sohalarda, jumladan ta’lim tizimida ham o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholi turmush darajasini yanada yuksaltirish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish va qashshoqlikni kamaytirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan loyihasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida “2023/2024 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda muloqot qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash qobiliyati, tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish” muhim vazifa etib belgilandi.

Umumta’lim maktablarida tarixda ilk bor respublikamizda o‘z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika o‘quv fanlarini qamrab olgan va ushbu fanlarning o‘zaro integrasiyasini ta’minlaydigan “Tabiiy fanlar” darsligi yaratildi va amaliyotga joriy etildi..

O‘quvchilar “Tabiiy fanlar” ni olamni yaxlit, ajralmas, bir butun anglagan holda o‘rganadilar. Bundan tashqari ularda tabiat hodisalarini tasvirlash, bashorat qilish va tushunish,tadqiqotchilik ko‘nikmalari ham rivojlanib boradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun “Tabiiy fanlar” darsligida jami 12 ta bob, 86 ta mavzu berilgan bo‘lib, ushbu mavzulardan 61 ta nazariy mashg‘ulot, 20 ta amaliy mashg‘ulot, 5 ta lohiya ishi keltirilgan.

Loyiha ishlari mavzulari quyidagilardan iborat:

1. Biosfera modelini yasash
2. Novvot tayyorlash texnologiyasi
3. Toza ichimlik suvni olish
4. Oy holatini kuzatish.
5. . Energiyani tejash.

Loyiha ishlarini bajarishda o‘quvchi o‘zini kichik tadqqotchiday his qilib, tajribani bajaradi va o‘zlashtiradi, natijada tadqiqotchilik ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Albatta o‘quvchilar loyiha ishlarini bajarishlarida rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etishlariga ko‘maklashish, muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam berish va boshqarish o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Tabiiy fanlarda loyiha ishlari fanlararo bo‘ladi. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhiy asosda amalga oshiriladi. Loyihaning ishlarini bajarish davomida g‘oyalarni tug‘ilishidan to ularni bajarishni yakunigacha tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish shakllantirish kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

6-sinf “Tabiiy fanlar” darsligida keltirib o‘tilgan “Biosfera modelini yasash” loyiha ishini ko‘rib chiqaylik.

Loyiha ishini bajarish jarayonida o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodiy, o‘yin, axborot izlanish faoliyatlarini qamrab olinadi.

Loyiha ishlarini olib borishda albattta o‘qituvchi bu yerda boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Loyiha ishini bajarish bosqichlari belgilab olinadi:

1. Tayyorlov bosqichi
2. Amalga oshirish bosqichi
3. Tahliliy bosqich

Dastlab, tayyorlov bosqichida quyidagilar belgilab olinadi:

Loyiha ishi mavzusi: Biosfera modelini yasash

Nazariy ma’lumot: Biosfera – Yer sayyorasining tirik organizmlar yashaydigan qobig‘i. Odam, o‘simlik, hayvon, zamburug‘, bakteriyalar biosferaning tirik qismini, tosh, tuproq, suv va atmosferadagi gazlar biosferaning notirik qismini tashkil etadi. Biosferaning tirik va notirik qismlari bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Tog‘ jinslari yemirilishi hamda tirik organizmlar faoliyati natijasida tuproq hosil bo‘ladi. Tuproqdagi suv va minerallar o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilib va fotosintez jarayonida organik moddalar hosil bo‘lishiga sarflanadi. O‘simliklarni o‘txo‘r hayvonlar, ularni esa yirtqich hayvonlar iste’mol qiladi. Tirik organizm qoldiqlari tuproqdagi mikroorganizmlar yordamida parchalanib, minerallarga aylantiriladi. Minerallar o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladi. Shu tarzda biosferada moddalar davriy aylanishi sodir bo‘ladi. Ko‘plab zavod va fabrikalarning qurilishi, o‘rmonlarning kesilishi, suv yo‘llarining to‘silishi atrof-muhitga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Agar tabiatni muhofaza qilmasak, suv va havo ifloslanadi, bu esa biosferaga salbiy ta’sir qiladi.

Loyiha ishining dolzarbligi: Ko‘plab zavod va fabrikalarning qurilishi, o‘rmonlarning kesilishi, suv yo‘llarining to‘silishi atrof-muhitga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Agar tabiatni muhofaza qilmasak, suv va havo ifloslanadi, bu esa biosferaga salbiy ta’sir qiladi.

Loyiha ishining maqsadi: biosferani modellashtirish orqali o‘rganish.

Loyiha ishining predmeti: shisha idish, shag‘al, qum, tuproq, bioo‘g‘it, sekin o‘suvchi o‘simliklar, suvpurkagich

Loyiha ishining ob’yekti: biosfera modeli

Loyiha ishining vazifalari: biosfera modelini yasash jarayonida tabiat qonunlarini o‘rganish, ulardan inson manfaatlari yo‘lida oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishga yordam berish.

Loyiha ishini bajarish metodlari: kuzatish, tajriba o‘tkazish, modellashtirish.

Loyiha ishini amalga oshirish bosqichida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

Loyiha ishini bajarish tartibi:

1. Idish tubiga qum, uning ustiga shag‘al soling.
2. Tuproq, bioo‘g‘itni ketma-ket qatlam hosil qilib joylashtiring.
3. Tuproqqa turli o‘simliklarni ekib, kompozitsiya yarating va unga suv purkang.
4. Biosfera modelini yasashda tosh, turli xil daraxt shoxchalaridan bezak sifatida foydalaning.
5. Biosfera modeli uzoq vaqt turishi uchun uni parvarish qiling.

Loyiha ishining taqdimoti: guruh a’zolari o‘rtasida vazifalarni aniqlanadi, ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash.

Loyiha ishi tahliliy bosqichida quyidagilar aniqlanadi:

Loyiha ishi xulosasi taqdim etiladi.

Loyiha ishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar aytib o‘tiladi yoki yozma ravishda taqdim etiladi.

Loyiha ishi bo‘yicha foydalanilgan manbaalar ro‘yxatini ko‘rsatiladi.

O‘qituvchi tomonidan loyiha ishi taqdimoti va natijalari baholanadi.

Bajarilgan o‘quv loyihasi natijalarini baholash jarayonida loyiha sifati, loyiha ustida ishlash jarayoni, ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o‘tish yo‘llariga e’tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan loyihasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi
2. Z. B. Sangirova, K. T. Suyarov, M.T.Umaraliyeva, S. G‘. Xasanova, D.T.Hasanova, M.K.Yuldasheva Tabiiy fanlar., Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.
3. www. Google.uz www. Ziyonet.uz

MONOKRISTALL KREMNIYGA LEGIRLANGAN MARGANESNING KISLOROD KONSENTRATSIYASIGA TA’SIRI

M.O. Tursunov
Termiz davlat universiteti

Kremniydagi termik va radiatsion defektlar asosan optik aktiv kislorod konsentratsiyasi orqali aniqlanadi. Chunki bunday kislorod konsentratsiyasini boshqarish katta texnologik imkoniyat yaratadi. Marganes va kislorod segregatsiya jarayonini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Bunga sabab kremniyda marganets atomlari yetarli darajada yuqori eruvchanligi N~10^{18} sm^{-3} ga teng [1-2] va ular elektroneytral holatda bo‘lishadi.

Dastlabki material sifatida Choxralskiy (I guruh) va Beztigelnoy zonnoy plavki (II guruh) metodi bilan olingan, solishtirma qarshiligi *p*-tip ρ=5 Om·sm, va *n*-tip ρ=100 Om·sm bo‘lgan monokristall kremniy foydalanildi. Bu namunalarda optik aktiv kislorod konsentratsiyasi (I guruh) $N_{O2}=(5\div6)\cdot10^{17}$ sm-3 va (II guruh) $N_{O2}\sim3\cdot10^{16}$ sm^{-3} ni tashkil etadi. Namunaning o‘lchami 1×4×0,8 mm^3.

1-jadval

Dastlabki namunalarning o‘rtacha elektrik va optik parametrlari (T=300K).

I guruh						
Dastlabki material	Tip	$\mathbf{R_x}$	$\boldsymbol{\rho}$	**μ**	***p, n***	N_O^{opt}, optik aktiv kislorod
KDB-5	*p*	$1.5\cdot10^3$	4.7	329	$4\cdot10^{15}$	$5.7\cdot10^{17}$
KEF-100	*n*	$1.3\cdot10^5$	97	1340	$4.8\cdot10^{13}$	$5.7\cdot10^{17}$
II guruh						
KDB-5	*p*	$1{,}3\cdot10^3$	4.5	294	$4{,}8\cdot10^{15}$	$4.5\cdot10^{16}$
KEF-100	*n*	$1.35\cdot10^5$	94	1436	$4.6\cdot10^{13}$	$4.5\cdot10^{16}$

Barcha namunalar bir xil sharoitda mexanik va kimyoviy ishlov berildi. Namunalarning elektrik parametrlari Xoll effekti yordamida aniqlandi. Namunalarning kontakt qismi kimyoviy gipofosfit rastvorli nikel bilan qoplandi va bu bizga namunaning elektrik parametrini aniq o‘lchash imkoniyatini berdi.

N_O^{opt} - tugunlararo optik aktiv kislorod atomlari konsentratsiyasini 1106 sm^{-1} (9 mkm) oblastdagi infraqizil nurlar o‘tish spektrini FSM-1202 spektrometri bilan xona haroratida o‘lchandi.

N_O^{opt} konsentratsiyasi quyida keltirilgan formula orqali aniqlanadi [3].

$$N_o^{opt} = 3.3\cdot10^{17}\cdot\frac{1}{d}\cdot\ln\frac{I}{I_0} \quad (1)$$

I va I_0 – tushayotgan va o‘tayotgan yorug‘lik intensivligi, d- namunaning qalinligi.

I va II guruh namunalarining kremniydagi tugunlararo optik aktiv kislorod konsentratsiyasi 1106 sm^{-1} (9 mkm) sohada Furye spektrometr orqali o‘lchandi va natijalar tahlil qilindi. (1-rasm).

O‘tkazilgan eksperimentlardan kelib chiqib aytish mumkinki turli xil metod bilan o‘stirilgan kremniyda kislorod konsentratsiyasi bir biridan farq qilishi ma’lum bo‘ldi. Agar bu namunalarga marganets kiritadigan bo‘lsak kremniydagi kislorod konsentratsiyasini boshqarish orqali uning elektrofizik parametrlarini o‘zgartirishimiz mumkin bo‘ladi. Bu bizga namunaning funksional imkoniyatini oshiradi.



1-rasm. Dastlabki namunalarning tushayotgan yorug‘lik to‘lqin uzunligining yorug‘lik o‘tkazuvchanlik qiymatiga bog‘liqligi. (1- I gruppa 2- II gruppa).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Илиев Х.М., Исаков Б.О., Рахмонов Б.Р., Рахманов У. Влияние на атомы кислорода последовательно легированных атомов Ga и Sb в кремнии. // «Полупроводниковая микро- и наноэлектроника в решении проблем информационных технологий и автоматизации» Белоруссия. БНТУ. 2022. Секция 6. С.338-340.

2. Бабич.М.Б., Белецкан.Н.И., Е.Ф.Венгер. Кислород в монокристаллах кремния. // Киев. 1997.

3. Илиев Х.М., Исамов С.Б., Турсунов М.О. Ковешников С.В. Влияние легирования никелем и марганцем на концентрацию кислорода в кремнии // Наука и общество. Нукус, 2022. №.4. Ч. 2. 7-10.

ATMOSFERA QATLAMALARIDA KUZATILADIGAN TURLI OPTIK HODIALAR.

M.M. Sobirov, D.Sh. Tursunboyeva.
Farg’ona davlat universiteti
Email: tursunboyevadurdonaxon83@gmail.com

Quyosh nurlari atmosfera qatlamlaridan o'tish jarayonida turli optik hodisalar kuzatiladi. Bu hodisalar quyosh nurlarini atmosfera qatlamlardan o'tishidagi refraktsiyasi, dispersiyasi, sinishi va aerozol zarralarida sochilishi bilan bog'liq. Saroblarni xosil bo'lishi, osmonning ko'kish rangda ekanligi, ertalab va kechqurun gorizontning qizarishi, kamalak va boshqa turli hodisalar atmosfera hodisalari hisoblanadi.

Quyosh botishida xayratlanarli holatlar. Quyosh botishining kuzatilgan surati har safar atmosferaning holatiga bog'liq bo'lib, quyosh botayotgan nurlar bilan yoritilgan bulutlarning turi va shakli bilan belgilanadi. Shuning uchun, bir quyosh botishi boshqasidan juda farq qiladi. Va quyosh botishi har doim ajoyib go'zaldir.Quyosh botganda qanday ajoyib narsalarni ko'ramiz. Agar quyosh botishi aniq, bulutsiz osmonda kuzatilsa, ufq chizig'i to'g'ri bo'ladi - quyosh dengizda botadi.Avvalo, botayotgan quyoshning qizg'ish rangi va uning yonidagi osmonning bir xil rangi diqqatni tortadi. Ko'pincha bu rang yumshoq qizil, deyarli pushti bo'lib chiqadi, lekin ba'zida quyosh diski yorqin qizil va hatto qip-qizil ko'rinadi.

Qorong'i yoki ozgina qoraytirilgan shisha orqali ufq chizig'idan tashqarida quyosh botishiga qarab, quyosh diskining rangi turli nuqtalarda turli xil soyalarga ega ekanligini payqash oson. U ufq chizig'iga yaqinroq qizilroq bo'lib, diskning yuqori qismida u asta-sekin yengil tonlarning rangiga o'zgaradi. Ba'zida quyosh diskining yuzasida rangning o'zgarishini hatto ko'zoynaksiz ham ko'rish mumkin.

Quyosh botganda yana bir ajoyib hodisani kuzatish mumkin. Ba'zan quyosh aniq ko'rinadigan ufq chizig'i orqasida emas, balki ufq ustidagi qandaydir ko'rinmas chiziq orqasida botganga o'xshaydi.Bu hodisa ufqda hech qanday bulutlar yo'qligida kuzatiladi.Agar siz tezda tepalikning tepasiga (binoning yuqori qavatiga, katta kemaning yuqori palubasiga) chiqsangiz, bundan ham g'alati manzarani kuzatishingiz mumkin: hozir quyosh ufq chizig'ining orqasida botmoqda, lekin bir vaqtning o'zida quyosh diski gorizontal "ko'r chiziq" bilan kesilgan ko'rinadi.(1.3-rasm.)

1-rasm. Quyosh asta-sekin pastga va pastga tushadi va "ko'r chiziq" ning ufq chizig'iga

nisbatan pozitsiyasi o'zgarishsiz qoladi.

Botayotgan quyoshning qizil nuri

Nega osmon ko'k? Nega botayotgan quyosh qizil rangga aylanadi? Ma’lum bo‘lishicha, ikkala holatda ham sabab bir – quyosh nurlarining yer atmosferasiga tarqalishi.Bu darhol tushunilmadi. Osmonning moviyligini tushuntirish uchun bir vaqtning o'zida turli farazlar ilgari surildi. Ular osmonning ko'k rangini "yorug'lik va qorong'i" ning ma'lum nisbatlarda aralashishi natijasida tushuntirishga harakat qilishdi. Havo zarralari ko'k rangga bo'yalgan deb taxmin qilingan. Osmonning ko'k porlashi bu zarralar quyosh nuri bilan nurlanganda paydo bo'ladigan havo zarralari lyuminestsentsiyasining porlashi deb taxmin qilingan. Bugungi kunda bu tushuntirishlarning barchasi asossiz deb hisoblanadi. Ularning muvaffaqiyatsizligi yuz yildan ko'proq vaqt oldin, 1869 yilda J. Tindal o'zining mashhur

tajribasini amalga oshirganida isbotlangan. Bu tajriba uyda takrorlandi. Suv bilan to'ldirilgan to'rtburchaklar shaklidagi akvarium ishlatiladi va slayd-proyektordan zaif ajralib chiqadigan yorug'lik nuri akvarium devoriga yo'naltiriladi. Nurni yetarlicha tor qilish uchun slayd o'rniga qalin qora qog'oz parchasini o'rtada diametri 2 ... 3 mm bo'lgan teshikka ega slayd-proyektorga joylashtiring. Tajriba qorong'i xonada o'tkaziladi. Akvariumdan o'tayotganda tarmoq nurini mustahkamlash uchun siz suvga bir oz sut qo'shib, suyuqlikni yaxshilab aralashtirishingiz mumkin. Sut tarkibidagi yog 'zarralari suvda erimaydi; ular suspenziyada bo'lib, yorug'likning tarqalishiga hissa qo'shadilar. Tarqalgan yorug'likda mavimsi tusni kuzatish mumkin. Akvariumdan o'tgan yorug'lik qizg'ish rangga ega bo'ladi. Va shuning uchun, agar siz yon tomondan akvariumdagi yorug'lik nuriga qarasangiz, u ko'k rangli ko'rinadi va chiqish uchidan qizg'ish(1.2-rasm). Buni tushuntirish mumkin, agar ko'k rang qizildan ko'ra ko'proq tarqalgan deb taxmin qilsak; oq yorug'lik nuri sochuvchi muhitdan o'tganda. Undan asosan "ko'k komponent" tarqaladi, shuning uchun muhitdan chiqadigan nurda "qizil komponent" ustunlik qila boshlaydi. 1871 yilda J. Strett (Reley) Tindal tajribalari natijalarini aynan shunday tushuntirib berdi. U yorug'lik to'lqinlarining o'lchamlari yorug'lik to'lqin uzunligidan ancha kichik bo'lgan zarralar tomonidan tarqalishi nazariyasini ishlab chiqdi.

2-rasm.Tindalning tajribasi.

Reley tomonidan o'rnatilgan qonunda ta'kidlanganidek, tarqalgan yorug'likning intensivligi yorug'lik chastotasining to'rtinchi darajasiga proporsional yoki boshqacha aytganda, yorug'lik to'lqin uzunligining to'rtinchi darajasiga teskari proportsionaldir. Agar Reley qonuni quyosh nurlarining yer atmosferasida tarqalishiga tatbiq etilsa, u holda kunduzgi osmonning moviy rangini ham, quyosh chiqishi va botishidagi quyoshning qizil rangini ham tushuntirish qiyin emas. Yuqori chastotali yorug'lik intensiv ravishda tarqalganligi sababli, tarqaladigan yorug'lik spektri yuqori chastotalar tomon siljiydi va nurda qolgan yorug'lik spektri (tarqalishni boshdan kechirgan yorug'lik nurni tark etgandan keyin) tabiiy ravishda teskari yo'nalishda - past chastotalarga siljiydi.Birinchi holatda oq rang ko'k rangga, ikkinchisida esa qizg'ish rangga aylanadi. Kunduzgi osmonga qarab, odamlar atmosferada tarqalgan yorug'likni sezadilar; Reley qonuniga ko'ra, bu yorug'lik spektri yuqori chastotalar tomon siljiydi, shuning uchun osmonning ko'k rangi. Quyoshga qarab, kuzatuvchi atmosferadan sochilmasdan o'tgan yorug'likni sezadi; bu yorug'likning spektri past chastotalarga o'tkaziladi. Quyosh ufq chizig'iga qanchalik yaqin bo'lsa, yorug'lik nurlari kuzatuvchiga yetib borgunga qadar atmosferada qancha uzoq tarqalsa, ularning spektri shunchalik ko'p siljiydi. Natijada, quyosh botishini (chiqayotganini) qizil tonlarda ko'ramiz va quyosh diskining pastki qismi nima uchun yuqori qismiga qaraganda qizilroq ko'rinishini ham juda oson tushuntirish mumkin bo’ladi.

Adabiyotlar

1. Розиков, Ж. Ю., Собиров, М. М., & Рузибоев, В. У. (2021). Поляризационные характеристики диффузно отраженного и проходящего излучения в среде с конечной оптической толщиной. *«Узбекский физический журнал», 23*(2), 11-20.

2. Sobirov, M. M., Rozikov, J. Y., & Ruziboyev, V. U. Formation of neutral points in the polarization characteristics of secondary radiation in the semi-infinite medium model. *International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis*, *4*, 406-412.
3. Sobirov, M. M., & Rozikov, J. Y. (2020). SOME QUESTIONS OF THE THEORY OF POLARIZED RADIATION TRANSFER IN AN ISOTROPIC MEDIUM WITH A FINITE OPTICAL THICKNESS. *Scientific-technical journal*, *3*(4), 16-22.
4. Sobirov, M. M., & Rozikov, J. Y. (2020). SPECIFIC FEATURES IN POLARIZATION OF DIFFUSELY REFLECTED AND TRANSMITTED RADIATION IN A MEDIUM WITH FINITE OPTICAL THICKNESS. *Scientific-technical journal*, *24*(5), 85-89.
5. Собиров, М. М., & Розиков, Ж. Ю. (2020). Особенность в поляризации диффузно отраженного и пропущенного излучения в среде с конечной оптической толщиной. *Научнотехнический журнал*, 85-89.
6. Собиров, М. М., & Розиков, Ж. Ю. (2020). Некоторые вопросы теории переноса поляризованного излучения в изотропной среде с конечной оптической толщиной. *Научно-технический журнал*, 15-24.
7. Ivchenko, E. L., & Sobirov, M. M. (1986). Theory of two-phonon resonance light scattering involving an acoustic and an optical phonon. *Fizika Tverdogo Tela*, *28*(7), 2023-2031.
8. SOBIROV, M., & Yuldashev, N. K. (1984). THEORY OF TRANSFER OF POLARIZED RADIATION IN CUBIC-CRYSTALS LOCATED IN A LONGITUDINAL MAGNETIC-FIELD IN THE REGION OF EXCITON RESONANCE. *ZHURNAL EKSPERIMENTALNOI I TEORETICHESKOI FIZIKI*, *87*(2), 677-690.
9. Собиров, М. М. (2021). ИЗМЕРЕНИЕ ПОЛЯРИЗАЦИЯ СВЕТА В ЧИСТОЙ АТМОСФЕРЕ. *EDITOR COORDINATOR*, 308.
10. Расулов, Р. Я., Мамадалиева, Н., Ахмедов, Б., & Разиков, Ж. К теории зонной структуры халькогенидов свинца. *Ilmiy xabarnoma*, *6*(1), 18.

QO'RG'OSHIN XALKOGENIDLARI ASOSIDAGI YARIMO’TKAZGICHLI FOTOREZISTORLARNI ELEKTRIK XOSSALRI.

O.O. Mamatkarimov[1], B.X. Quchqarov[1], B.M. Baxromov[2]
S.T. G’ofurov[2]
[1]Namangan muxandislik-texnologiya instituti.
[2]Milliy universitet huzuridagi yarim o’tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy tadqiqot institute.

Fotorezistorlar, geometrik o'lchamlar va optik xarakteristikalar bo'yicha cheklovlari nuqtai nazaridan, o'ziga xos o’tkazuvchanlikka mos keladi. Bir qator hollarda, ayniqsa, ko'p elementli tizimlar uchun, element o'lchamlari bir necha mikrometrlar bilan cheklangan. Chiziqli ko'p elementli fotoelektrik parametrlarning yuqori bir xilligini talab qiladi, bu nurlanish o'tadigan fotoelektrik parametrlarni kirish oynalarining optik bir xilligi bilan buzilmasligi kerak.

60-yillarning oxiriga kelib. Fotorezistorlar ishi texnologiyasining umumiy elektrovakum texnologiyasi mahsulotlariga yaqinlashdilar. Muhim farq, muhrlash uchun 61 yoki Sn + 3% Ag tipidagi past haroratli lehimlarning keng qo'llanilishi edi, garchi elektr manbai yoki elektron nurli payvandlash (FS2AN, FE47) ustunlik qilgan.

Fotosensitiv elementning o'lchamlari bo'yicha shakllanishi yo dielektrik substratdan PbS qatlamini bug'laydigan lazer nurlari yoki suyuq fotolitografiya yordamida amalga oshirildi. Vakumli fotorezistorlarda fotosensitiv element o'lchami shisha substratda chuqur kanallarni yotqizish orqali cheklangan bo'lib, uning qatlamini grafit kontaktli rasterga distillash paytida PbS bilan to'ldirilmagan va fotosensitiv element chegarasi bo'lib xizmat qilgan.

Boshqa barcha (vakumdan tashqari) fotorezistorlarda kontaktli rastr vakumda termal cho'kma yoki argon yoki havoda porlashda katod purkash orqali yotqizilgan yupqa oltin qatlamidan qilingan. Kumushga asoslangan kontaktlar yordamchi (oraliq) qo'pol baholash o'lchovlari uchun ishlatilgan. Palladiyning sochilgan qatlamlari oltinning dielektrik substrat bilan mexanik aloqasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bir qator nosozliklardan so'ng, fotorezistorning ichki bo'shlig'ida uzoq muddatli saqlash vaqtida havoni yutishi mumkin bo'lgan qismlar va materiallarni istisno qilish choralari ko'rildi. Amaldagi yopishtiruvchi moddalar va aralashmalar tananing oxirgi muhrlanishidan oldin to'liq quritilishi kerak.

Uzoq vaqt davomida konstruktiv xususiyatlari, uni yig'ish texnologiyasi fotosensitiv elementni mahalliy isitishning kuchli (zararli) ta'siri to'g'risidagi fikr, unga sim o'tkazgichlar ulanganda ham, ish paytida ham ta'sir ko'rsatdi. Butunlay muhrlangan. O'z vaqtida barqarorlashtirilmagan fotosensitiv elementlardan foydalanish bilan bog'liq bo’ladi.

Haqiqiy optik nurlar ta’sirida ish chastotasi, radiatsiya skanerlash chastotasi 50-2000 Hz. Bu fotorezistor uchun 50 dan 600 mks gacha bo'lgan zaryad tashuvchining ishlash muddatini talab qiladi, bu monokristallarda kuzatilgan qiymatlardan ancha yuqori; shuning uchun yuqori t qiymatiga ega bo'lgan polikristalli fotosensitiv elementlardan foydalanish mumkin.

Fotorezistor operatsiyasining spektral mintaqasini hisobga olgan holda, barcha hodisalar bilan bog'liq kvadratik va sirt (xarakterli, masalan, InSb asosidagi PR uchun) rekombinatsiyalarni e'tiborsiz qoldirish mumkin.

Adabiyotda asosiy o'rtasidagi munosabatlar haqida juda ziddiyatli ma'lumotlar mavjud parametrlari (sezuvchanlik va o'ziga xos detektivlik) boshqa xususiyatlarga ega, shu jumladan bo'shashish vaqti doimiysi t.

1. Jarayonda kuzatilgan nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari aniqlanmagan. Saqlash va ishlatish, bundan tashqari, ularning yarimo'tkazgich qatlamining fenomenologik parametrlari bilan aloqasi aniqlanmagan.

2. t = 80 ... 130 ms (bilan) bilan FChE olishning haqiqiy usullari $f_{п} \leq 2 \cdot 10^{-9} vt/smHz^{1/2}$). Bunda rentabelligi past va beqaror, shakllangan fotosensitiv elementlarni qo'shimcha qayta ishlash ko'pincha parametrlarning barqarorligini ta'minlamaydi.

Fotosensitiv element parametrlarini o'lchashda odatda radiatsiya manbai sifatida (qora tana) modeli ishlatiladi, bu bo'shliqning ichki yuzasidan ancha kichikroq ochilish maydoniga ega bo'lgan izotermik yopiq bo'shliqdir. Bunda radiatsiya oqimining samarali qiymati (1) formula bilan aniqlanadi.

$$\Phi_{э} = \frac{\sigma_{СБ} \cdot (T_1^4 - T_0^4) \cdot F \cdot A_{эфф} \cdot \beta}{\pi \cdot L^2} \quad (1)$$

Ushbu ma'lumotlardan kuchlanish sezuvchanligi va kabi parametrlar aniqlanishi (S_f va D*). Shuningdek, gevşeme vaqti konstantasining qiymati fotoo'tkazuvchanlik (joriy tashuvchilarning ishlash muddati) (t) ikkita chastotada fotodetektor fotosignalining qiymatlaridan foydalanish. Shunday qilib, (1) va (2) ifodalarga asoslanib, biz quyidagi formulani olamiz:

$$\tau^2 = \frac{(k_0^2 - 1)}{4\pi^2 \cdot (f_2^2 - f_1^2 k_0^2)} \quad (2)$$

buyerda $k_{0=} U_{c1}/U_{c2}$, sharti bilan $U_{c1} > U_{c2}$, $f_1 < f_2$

Fotosensitiv element qarshiligining doimiy monitoringi isitish vaqtida, tavlanish paytida va xona haroratiga sekin sovutish paytida amalga oshiriladi.

Nurlanish spektrining belgilangan qiymatida fotoo'tkazuvchanlikning vaqt konstantasining qiymatlarini aniqlash 3 qismdan iborat:

1.Shaxsiy kompyuter (PK);
2. O'lchov birligi (IB);
3. Optik tizim (OS).

1-rasm - Fotoo'tkazuvchanlikning bo'shashishini o'rganish uchun o'rnatishning tashqi ko'rinishi

O'lchov birligi (IB), o'z navbatida, quvvat manbai, o'lchov o'tkazgichlari taxtasi va o'lchov birliklarini boshqaradigan va shaxsiy kompyuter (PK) bilan ma'lumotlar almashinuvi uchun mas'ul bo'lgan boshqaruv panelidan iborat. Kompyuter bilan aloqa USB interfeysi orqali amalga oshiriladi.

Optik tizim (OS) to'lqin uzunligi 0,96, 1,6, 2,2 va to'rtta IK LEDdan iborat.
3,2 mikron, bundan tashqari, tizimda fon yoritilishini o'zgartirish imkonini beruvchi akkor chiroq mavjud. 2-rasmda uchta LEDning spektral xarakteristikalari ko'rsatilgan.

Spektral xususiyatlardan ko'rinib turibdiki, LEDlarning intensivligi yoqilgan λ_{max} kuchli har xil. Shunday qilib, to'lqin uzunligi 2,2 mkm bo'lgan LED uchun u 3,2 mkm to'lqin uzunligiga qaraganda deyarli 10 baravar va to'lqin uzunligi 1,6 mkm bo'lgan LEDga nisbatan 5 baravar yuqori.

Kompyuterda o'rnatilgan test dastgohi dasturiy ilovasi LabVIEW muhitida ishlab chiqilgan va virtual asboblarning dasturiy interfeysi elementlariga ega bo'lib, u sizga o'lchov o'tkazgichlarini dasturiy boshqarish, kommutatsiya xarakteristikasi grafigini yaratish va xarakteristikani saqlashga imkon beradi. Matn formatidagi fayl. Boshqaruv ilovalar avtomatlashtirilgan stendning o'lchov qismining funktsional birliklariga mos keladigan panellarda guruhlangan. Ilova interfeysi 3-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Turli diapazonlar uchun LEDlarning spektral xarakteristikalari.

Bunday holda, interfeys orqali quyidagi parametrlarni sozlash mumkin:

1. Emitent (LED) orqali o'tadigan oqimning qiymati, uni o'rnatish mumkin 0 dan 200 mA gacha.
2. Akkor chiroqdagi kuchlanish (yoritish), u 0 dan 6 V gacha o'zgarishi mumkin.
3. FPdagi kuchlanish, u 0 dan 10 V gacha o'zgarishi mumkin.



3-rasm - Ilovaning asosiy interfeysi

Bitta o'lchov uchun 64 ta xarakteristik nuqta dasturlashtirilganligi sababli, kommutatsiya xarakteristikasini o'lchash uchun minimal vaqt oralig'i 256 mks, maksimali esa 32 ms ni tashkil qiladi.

Ushbu parametr PD ning maksimal sezgirligida va sezgirlik chegarasida signalning nisbatini tezda boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vlasov S.I., Saparov F.A., Ismailov K.A. Semiconductor Physics, Quantum Electronics and Optoelectronics. 2010. Vol. 13. No. 4. P.363.
2. B Kuchkarov, O Mamatkarimov, and A Abdulkhayev. «Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor». ICECAE 2020 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012027 Conference Series:
3. B.X. Qo’chqarov, A. nishonov, X.O.Qochqarov “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries” Scientific bulletin of Namangan State University 1(7), 3-6.
4. S.I.Vlasov, D.N.Nazirov. B.K.Kuchkarov, K.U.Bobokhujayev. “Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure” Uzbekiston Fizika Zhurnali №16/3 str 231-233.
5. B.Kh.Kuchkarov, O.O.Mamatkarimov “Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures” Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. Tom-29. №4 str.125-134.
6. БХ Кучкаров. Влияние ультразвукового воздействия на скорость формирования заряда инверсионного слоя в структурах метал-стекло-полупроводник. Вестник КРАУНЦ. Физико-математические науки. 2019. 29/4. стр.125-134.
7.Kuchkarov, B.H., Mamatkarimov, O.O., Abdukarimov, A.A., Khalmirzayev, A., Mirtojiyeva, D.M. Influence of All-Round Compression on Formation of the Mobile Charge in Lead-Borosilicate Glass Structure. AIP Conference Proceedings, 2022, 2432, 030039
8. Fazliddinov, S., Kuchkarov, B., Sharibaev, N., Abdulkhaev, A., Tulkinov, M.-A. Analysis of modern methods of determination of mechanical status and diagnostic models of power transformers. Journal of Physics: Conference Series, 2022, 2388(1), 012173.
9. Kuchkarov, B., Mamatkarimov, O., Abdulkhayev, A. Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2020, 614(1), 012027.

ELEKTR STANSIYALARI VA ULARNING AHAMIYATI

S.Q. Bekniyozov, O.D. O’rinova, D.I. Kamalova
Navoiy davlat pedagogika instituti
Email: kamalova.di@mail.ru

Hozir hayotimizni radio, televideniye, telefon, telegrafsiz, turli xil yoritish jihozlari va qizdirish asboblarisiz, mashina va qurilmalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bularning hammasi elektr energiyasi (toki) bilan ishlaydi.

Elektr energiyasi qayerdan olinadi? Uni elektr stansiyalarida maxsus mashinalar — elektr toki generatorlari hosil qiladi. Generatorlarning turlari ko‘p. Energiyasi kichkina uyni yoritish uchungina yetadigan mitti elektr generatorlardan tortib, katta shaharni elektr energiyasi bilan ta’minlay oladigan ulkan elektr generatorlarigacha bor.

Generator elektr toki berishi uchun uning asosiy qismi — rotor aylantiriladi.

Katta generatorlarning rotori bir necha yuz tonna bo‘lganligi uchun uni maxsus mashina — turbina aylantiradi. Har qaysi turbina kuraklari yoki parraklari bo‘lgan ish g‘ildiraklariga ega. Qizdirilgan gaz yoki suv bug‘i oqimi katta kuch bilan turbina g‘ildiragi parraklariga urilib, uni aylantiradi, turbina bilan birga generator rotori ham aylanma harakatga keladi.

Suv oqimi aylantiradigan turbina gidravlik turbina deyiladi, bunday turbinalar o‘rnatilgan elektr stansiyalari esa gidroelektr stansiya yoki qisqacha GES deb ataladi. Turbinani issiqlik elektr stansiyalari (IES) da bug‘, gaz turbinali elektr stansiyalarida esa qizdirilgan gaz lar oqimi aylantiradi.

Gidroelektr stansiyalari Sirdaryo, Chirchiq, Bo‘zsuv kabi sersuv daryolarda yoki tog‘dan tushadigan tezoqar daryolarda quriladi. IES uchun esa to‘g‘on va suv havzalarining keragi yo‘q. Shu sababli, ularni hamma joyda qu rish mumkin. Lekin IES da suvni isitib, bug‘ hosil qilish uchun har doim yoqilg‘i bo‘lishi zarur. IES uchun ko‘mir ortilgan poyezdlar birin-ketin kelib turadi yoki quvurlardan gaz yetkazib beriladi.

Atom elektr stansiyalari (AES) da esa yoqilg‘i juda oz talab qilinadi. Lekin, bu yoqilg‘i o‘zgacha. Atigi 10 gramm atom yoqilg‘isi bir vagon ko‘mirning o‘rnini bosadi. Issiqlik elektr stansiyalaridagi kabi, atom elektr stansiyalarida ham elektr generatorlarini bug‘ turbinalari aylantiradi. Lekin AES larda na ko‘mir yoqiladigan, na gaz yoqiladigan o‘txona, na bug‘ qozoni bor. Bug‘ hosil qilish uchun zarur issiqlik AESning yuragi – atom reaktorida yadro reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladi. Yadro reaksiyasini uzluksiz takrorlanuvchi kichik-kichik atom portlashlari bilan qiyoslash mumkin. Lekin bu tinchlik maqsadidagi portlashlardir. Reaktor qalin beton devorlar bilan ishonchli berkitilgan. Yadro reaksiyasini muntazam ravishda avtomatik asboblar nazorat qilib turadi (lekin zarur texnikaviy shart-sharoitlarga to‘liq rioya qilinmasa, AES atrofdagi aholi va tabiat uchun o‘ta xavfli ekan. Buni Chernobil AES dagi baxtsiz hodisa tasdiqlab turibdi).

Olimlar va muhandislar elektr energiyasining yangi manbalarini izlamoq dalar. Masalan, dengizning qirg‘oqqa urilib-qaytib turadigan to‘lqinlarini ishga solish mumkin emasmikan? Elektr stansiyalarining turbinalarini aylantirish uchun dengiz suvi kuchidan foydalanib bo‘lmasmikin? Ma’lum bo‘lishicha, mumkin ekan.

Saxovatli Quyosh milliard yillardan buyon o‘z nurini Yerga sochib turadi. Quyosh nuri ham energiya. Odamlar uni elektr tokiga aylantirishni o‘rganib oldilar. Buning uchun maxsus yarimo‘tkazgichli asboblar — fotoelementlar yaratilgan. Ular birgalikda quyosh batareyasini tashkil qiladi.

Quyosh radiatsiyasi energiyasini amalda foydalanish uchun qulay bo‘lgan energiya turlariga aylantirib berish masalalari bilan shug‘ullanadigan texnika sohasi geliotexnika deb

ataladi. Geliotexnika yordamida elektr energiyasi yetib bormagan joylar (masalan, chorvadorlar istiqomat qiladigan joylar) ni elektr toki bilan ta’minlash, uylarni elektr nurlari yordamida isitish, issiq xonalarni isitish va boshqa ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Kosmik kemalar va Yer ning sun’iy yo‘ldoshlarini elektr energiyasi bilan aynan quyosh batareyalari ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Камалова Д.И., Бобоқулова Ш.О. Муқобил энергия турларидан Қуёш энергияси ва унинг Ерга таъсири. «Муқобил энергия манбалари ва улардан фойдаланишнинг долзарб муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-техник анжумани материаллари тўплами. Бухоро. 2015-йил 25-26 ноябрь.
2. Камалова Д.И., Мансурова Ш.М., Турабова Л.Х. Қуёш физикасини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш. «Образование и наука в XXI веке». Международный научно-образовательный электронный журнал. Январь. 2021. №10. 30-33 стр.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВРЕМЯ ПЕРЕХОДНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ГЕТЕРОСТРУКТУРНЫХ ФОТОПРИЕМНИКОВ НА ОСНОВЕ ТЕЛЛУРИДА КРЕМНИЯ

Р.Р. Кабулов, С.Ю. Герасименко, Н.Р. Хамидова, А.З. Абдурасулов, Л.У. Шухратова

Физико-технический институт АН РУз

Email: krr1982@bk.ru

Фотоприемники на основе теллурида кадмия (CdTe) является оптимальным материалом для создания высокоэффективных пленочных солнечных элементов (СЭ) и фотоприемников благодаря своим уникальным свойствам. CdTe прямозонный полупроводниковый материал имеющий ширину запрещенной зоны E_g = 1.45 эВ, которая соответствует максимуму спектра солнечного излучения и имеет самый высокий теоретический коэффициент полезного действия (КПД) — 29% [1]. В настоящее время на СЭ на основе CdTe достигнут один из максимальных значений КПД тонкопленочных СЭ величиной 22.3% [2].

Исследование релаксационных характеристик фотоприемников (ФП), таких как, затухание величины фототока (J_{ph}) при освещении прерывистым светом дают возможность установить механизм фотогенерации неравновесных фотогенерированных носителей заряда и процессы их рекомбинации. Известно, что величина фототока зависит от концентрации фотогенерированных носителей заряда – Δn [1]. Временные характеристики Δn определяется соотношением (1) [3]:

$$\frac{d\Delta n}{dt} = \frac{\Delta n}{\tau} \qquad (1),$$

где, τ – время жизни фотогенерированных носителей заряда. Решение уравнения (1) имеет вид (2):

$$\Delta n = \Delta n(o) * \exp(t/\tau) \qquad (2),$$

$\Delta n(o)$- стационарное максимальное значение фотогенерированных носителей заряда. Для экспериментального определения τ для Δn нужно определить время спада от максимального значения до уровня Δn(0)/e или Δn(0)/2,72.

На рис.1 представлена конструкция созданной фоточувствительной гетероструктуры In-*n*-CdO/*p*-CdTe-Mo и схема установки для измерения времени жизни носителей заряда. Технологический процесс создания In-*n*-CdO/*p*-CdTe-Mo структурного фотоприемника с широким спектром фоточувствительности на основе CdTe подробно описаны в работе [4].



Рис.1. Конструкция созданной гетероструктуры In-*n*-CdO/*p*-CdTe-Mo и схема установки для исследования времяпереходных характеристик.

В качестве источника модулирующего электромагнитного излучения использовались LED светодиоды белого излучения мощностью 40 mW. На излучающие светодиоды с генератора прямоугольных импульсов Г5-54, через балластное сопротивление величиной 50 Ohm, подавались импульсы напряжения различной величины амплитуды, длительностью 100 μS, частотой следования 2 kHz и скважностью равной 5. Изменяя амплитуду импульса, имеется возможность изменять мощность излучения ЛЭД светодиода. Созданная гетероструктура, нагружалась на переменное сопротивление $R_н$, импульсный отклик со структуры подавался на вход цифрового осциллографа RIGOL-1102E, с функцией оцифровки и сохранения в цифровой форме данных. На рис.2а и б представлены экспериментальные результаты релаксационных кривых, которые сняты с нагрузочных сопротивлений ($R_н$) 152 Ohm (а) и 4,3 kOhm (б), при освещении светодиодом с различной мощности освещения и построены в логарифмическом масштабе.



Рис.2. Экспериментальные результаты релаксационных кривых, зафиксированных с $R_н$ 152 Ohm (а) и 4,3 kOhm (б), построенные в логарифмическом масштабе, при освещении светодиодом белого излучения различной мощности.

Из рис.2 видно, что релаксационные кривые, снятые с $R_н$ = 152 Ohm при освещении ФП белым излучением различной мощности имеют один наклон, т.е., время релаксации характеризуется одной величиной $\tau = 22 \pm 1$ мксек.

На рис. 3 представлена, зависимость величины τ от мощности освещения, при величинах $R_н$ = 152 Ohm (1), 660 Ohm (2), 1.6 kOhm (3), 4.3 kOhm (4), 10 kOhm (5).

Из рис. 3 следует, что с ростом $R_н$ эффективная величина τ возрастает. Так как, включение $R_н$ в цепь ФП означает, что электрический потенциал падающий на $R_н$ величиной $V_н = J_{ph}*R_н$ приложено к p-n-переходу в прямом направлении, который приводит к возникновению инжекционного тока. Из рис. 3, что с ростом мощности излучения (P) эффективная величина τ, в пределах погрешности эксперимента не изменяется.

На основе экспериментальных результатов можно сделать заключение, что время жизни неравновесных носителей заряда увеличивается под действием инжектированных носителей заряда, но не изменяется под действием фотогенерированных носителей заряда.

Наблюдаемые эффекты увеличение величина τ можно интерпретировать в рамках модели [5], когда рекомбинация неравновесных носителей тока идет с задержкой, то есть с участием комплексов, внутри которых происходит электронный

обмен. В данном случае выражение Шокли-Рида для скорости рекомбинации принимает вид (3) [5]:



а

Рис. 3. Зависимость величины τ от мощности освещения, при величинах $R_н$ = 152 Ohm (1), 660 Ohm (2), 1.6 kOhm (3), 4.3 kOhm (4), 10 kOhm (5).

$$U = N_R \frac{c_n c_p (np - n_i^2)}{c_p(n+n_1)+c_p(p+p_1)+a\tau_i np} \quad (3),$$

где N_R — концентрация рекомбинационных центров (комплексов), n, p — концентрации электронов и дырок, n_i- собственная концентрация в полупроводнике, c_n, c_p — коэффициенты захвата электронов и дырок, n_1, p_1-равно-весные концентрации электронов и дырок в условиях, когда уровень Ферми совпадает с уровнем примеси (так называемые статические факторы Шокли- Рида), τ_i – время задержки, учитывающее те или иные процессы электронного обмена внутри рекомбинационного комплекса, a — коэффициент, зависящий от конкретного типа примесных или дефект-примесных комплексов [5]. Рекомбинация неравновесных электронов и дырок происходящая внутри рекомбинационного комплекса обусловливает появление последнего члена в знаменателе формулы (2), который при достаточно высоком уровне возбуждения может стать определяющим. В бинарном полупроводнике CdTe роль дефект-примесного комплекса выполняет двухзарядная вакансия Cd с заряженным донорным центром комплексом типа $(V_{-2} + \mathrm{Cd}_{D+})^{-}$ [6].

Литература.

1. W. Shockley, H. Queisser, *J.J.Appl. Phys.*, 32, 510, 1961.
2. Martin A. Green, “Solar cell efficiency tables (Version 60)”, *Prog. Photovolt. Res Appl.*, 30, 687–701, 2022. DOI: 10.1002/pip.3595.
3. S.M. Sze, K.Ng. Kwok. *Physics of Semiconductor Devices*”, 3rd ed., Hoboken-New Jersey: Wiley-Interscience Publication, 2007, p. 823.
4. R.R Kabulov, “The effect of the buffer layer material on the photosensitivity spectrum of heterostructures based on CdTe”, *Sci.J. of Semicond. Phys. and Microelectr.*, v.1. N.3. pp. 56-61, 2019. Available at: https://uzjournals.edu.uz/semiconductors/vol1/iss3/8.
5. Leiderman A.Yu., Minbaeva M.K. “A mechanism of rapid growth of direct current in semiconductor diode structures”, *Semiconductors*, 1996, v. 30, N. 10, pp.1729-1738, 1996.
6. Sh. N. Usmonov, Sh. A. Mirsagatov, and A. Yu. Leyderman, “Study of the Current–Voltage Characteristic of the n-CdS/p-CdTe Heterostructure Depending on Temperature”, Semiconductors, Vol. 44, No. 3, pp. 313–317, 2010. doi.org/10.1134/S1063782610030073.

AMORF YARIMO‘TKAZGICHLARNING FUNDAMENTAL YUTILISH SOHASI SPEKTRLARI

R.G‘. Ikramov, M.A Nuriddinova, X.A. Mo‘minov, O.T. Xolmirzayev, B.Q. Sultonov,
Namangan muhandislik texnologiya instituti

Amorf yarimo‘tkazgichlarni optik yutilish koeffisiyenti spektral xarakteristikalarini $\alpha(\hbar\omega)$ analitik ifodasini aniqlash uchun odatda, Devis – Mott yaqinlashish usuliga ko‘ra Kubo-Grinvud formulasidan foydalaniladi. Bu formulani:

$$\alpha(\hbar\omega) = A\int g_V(\varepsilon)g_C(\varepsilon+\hbar\omega)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} \tag{1}$$

yoki

$$\alpha(\hbar\omega) = A\int g_V(\varepsilon-\hbar\omega)g_C(\varepsilon)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} \tag{2}$$

ko‘rinishlarda yoziladi [1, 2]. Bu yerda A – yutilgan fotonlarni energiyasiga ($\hbar\omega$) bog‘liq bo‘lmagan proporsianallik koeffisiyenti, $g_V(\varepsilon)$ - va $g_V(\varepsilon-\hbar\omega)$ – lar elektronlarni optik o‘tishlaridan oldingi, $g_C(\varepsilon+\hbar\omega)$ – va $g_C(\varepsilon)$ – lar keyingi holatlari zichliklari.

(1) va (2) formulalardagi integrallar aniqmas bo‘lganligi uchun ular umumiy yechimni beradi. Shuning uchun [3] ishda Kubo-Grinvud formulasidan optik yutilish koeffisiyenti spektrlarini xususiy yechimlarini olish maqsadida, undagi integralni aniq integral ko‘rinishda yozish kerakligi ko‘rsatilgan. Ma’lumki, elektronlarni optik o‘tishlarini fundamental sohasida yutilgan fotonlarni energiyasi amorf yarimo‘tkazgichlarni harakatchanlik tirqishining energetik kengligidan ($E_g<\hbar\omega$) katta bo‘ladi. [4] ishda amorf yarimo‘tkazgichlarda E_g dan katta energiyali fotonlar yutilganda, bir vaqtni o‘zida elektronlarni valent zona dumidan o‘tkazuvchanlik zonasiga, valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasiga va valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasi dumiga optik o‘tishlari kuzatilishi ko‘rsatilgan va shu o‘tishlarga (1) formulani moslashtirilgan. Odatda, optik yutilish spektrlarni nazariy tadqiq qilishda, amorf yarimo‘tkazgichlarning ruxsat etilgan zonalarni chegaralaridagi elektron holatlari zichliklari chiziqli yoki parabolik, ruxsat etilgan zonalarni dumlaridagi esa, eksponensial taqsimotlar bilan yoziladi [5, 6]. [7] ishda bu taqsimotlar uchun quyidagi empirik model taklif qilingan:

$$g_V(\varepsilon) = N(\varepsilon_V)\left(\frac{\varepsilon_C-\varepsilon}{E_g}\right)^{n_1},\ n_1 = 1/2, 1 \quad \text{va} \quad g_V(\varepsilon) = N(\varepsilon_V)\exp\left(-\beta_1(\varepsilon-\varepsilon_V)\right). \tag{3}$$

$$g_C(\varepsilon) = N(\varepsilon_C)\left(\frac{\varepsilon-\varepsilon_V}{E_g}\right)^{n_2},\ n_2 = 1/2,1 \quad \text{va} \quad g_C(\varepsilon) = N(\varepsilon_C)\exp\left(\beta_2(\varepsilon-\varepsilon_C)\right), \tag{4}$$

bu yerda $N(\varepsilon_V)$ – valent zonadagi, $N(\varepsilon_C)$ – esa, o‘tkazuvchanlik zonasidagi elektron holatlari zichligining effektiv qiymatlari.

Endi yuqoridagi usulda parsial yutilish koeffisiyenti spektrlarini (2) formuladan foydalanib hisoblash uchun, bu formuladagi integralni aniq integral ko‘rinishida quyidagicha yozamiz:

$$\alpha(\hbar\omega) = A\int_{\varepsilon_0}^{\varepsilon_0+\hbar\omega} g_V(\varepsilon-\hbar\omega)g_C(\varepsilon)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} \tag{5}$$

(5) formulani elektronlarni optik o‘tish turlariga moslashtirib, parsial yutilish spektrlariga ajratamiz:

$$\alpha(\hbar\omega) = A\int_{\varepsilon_0}^{\varepsilon_0+\hbar\omega} g_V(\varepsilon-\hbar\omega)g_C(\varepsilon)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} = A\int_{\varepsilon_V+\hbar\omega}^{\varepsilon_0+\hbar\omega} g_V(\varepsilon-\hbar\omega)g_C(\varepsilon)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} + \\ + A\int_{\varepsilon_C}^{\varepsilon_V+\hbar\omega} g_V(\varepsilon-\hbar\omega)g_C(\varepsilon)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} + A\int_{\varepsilon_0}^{\varepsilon_C} g_V(\varepsilon-\hbar\omega)g_C(\varepsilon)\frac{d\varepsilon}{\hbar\omega} = \alpha_1(\hbar\omega)+\alpha_2(\hbar\omega)+\alpha_3(\hbar\omega) \quad (6)$$

bu yerda ham, $\alpha_1(\hbar\omega)$– valent zona dumidan o‘tkazuvchanlik zonasiga, $\alpha_2(\hbar\omega)$– valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasiga (zonalararo yutilish spektri), $\alpha_3(\hbar\omega)$– valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasi dumiga elektronlarni optik o‘tishlari bilan aniqlanadigan parsial yutilish koeffisiyenti spektrlari.



1 – rasm. Amorf yarimo‘tkazgichlarni 1 - $n_1=n_2=1/2$ bo‘lganda (7); 2 - $n_1=n_2=1$ bo‘lganda (8); 3 - $n_1=1$, $n_2=1/2$; yoki $n_1=1/2$, $n_2=1$ (9) formulalardan zonalararo parsial yutilish



2 - rasm. 1- $n_1=n_2=1$ bo‘lganda (10) va (11) formulalardan va 1- $n_1=n_2=1/2$ bo‘lganda taqribiy usullarda hisoblangan elektronlarni valent zona dumidan o‘tkazuvchanlik zonasiga (a), valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasiga (b) optik o‘tishlarini parsial spektrlari

(6) formuladagi zonalararo yutilish spektrlarini hisoblaymiz. $n_1= n_2=1/2$ ga teng bo‘lganda, zonalararo yutilish spektri uchun

$$\alpha_2(\hbar\omega) = \frac{B}{4\hbar\omega E_g}\left[2(\hbar\omega-E_g)\sqrt{E_g\hbar\omega} - (E_g-\hbar\omega)^2 arctg\left(\frac{E_g-\hbar\omega}{2\sqrt{E_g\hbar\omega}}\right)\right]. \quad (7)$$

$n_1= n_2=1$ ga teng bo‘lganda:

$$\alpha_2(\hbar\omega) = \frac{B}{6\hbar\omega E_g^2}(\hbar\omega-E_g)(E_g^2+4\hbar\omega E_g+(\hbar\omega)^2). \quad (8)$$

$n_1=1$, $n_2=1/2$ va $n_1=1\backslash 2$, $n_2=1$ bo‘lganda esa:

$$\alpha_2(\hbar\omega) = \frac{2B}{15\hbar\omega\sqrt{E_g^3}}\left[5(\hbar\omega+E_g)\left(\sqrt{(\hbar\omega)^3}-\sqrt{E_g^3}\right)-3\left(\sqrt{(\hbar\omega)^5}-\sqrt{E_g^5}\right)\right]. \quad (9)$$

ifodalar olindi. (7)-(9) formulalar [4] ishda olingan formulalardan umuman farq qilmasligini ko‘rish mumkin, bu formulalardan olingan hisoblash natijalari 1- rasmda keltirilgan. Bulardan zonalararo yutilish spektrlarini analitik ifodalarini Kubo-Grinvud formulasidan aniqlashda, bu formulani (1) va (2) ko‘rinishlaridan foydalanish mumkin ekanligi kelib chiqadi.

Xuddi shu usulda (6) formuladagi $\alpha_1(\hbar\omega)$ va $\alpha_3(\hbar\omega)$ larni hisoblashni qarab chiqamiz.

$n_1=n_2=1/2$ ga teng bo‘lganda $\alpha_1(\hbar\omega)$ – valent zona dumidan o‘tkazuvchanlik zonasiga, $\alpha_3(\hbar\omega)$ – valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasi dumiga elektronlarni optik o‘tishlari bilan aniqlanadigan parsial yutilish spektrlarini analitik ifodasini olishni imkoni bo‘lmaganligi uchun, ularni taqribiy hisoblash usullaridan foydalanib aniqlandi.

$n_1=n_2=1$ ga teng bo‘lganda, valent zona dumidan o‘tkazuvchanlik zonasiga va valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasi dumiga elektronlarni optik o‘tishlari bilan aniqlanadigan parsial yutilish spektrlarini analitik ifodalari:

$$\alpha_1(\hbar\omega)=\frac{B\exp\left(-\beta_1(\varepsilon_0-\varepsilon_V)\right)}{E_g\hbar\omega\beta_1}\left[\left(\frac{1}{\beta_1}+\hbar\omega\right)\exp\left(\beta_1(\varepsilon_0-\varepsilon_V)\right)-\left(\varepsilon_0-\varepsilon_V+\frac{1}{\beta_1}+\hbar\omega\right)\right], \quad (10)$$

$$\alpha_3(\hbar\omega)=\frac{B\exp\left(\beta_2(\varepsilon_0-\varepsilon_C)\right)}{E_g\hbar\omega\beta_2}\left[\left(\frac{1}{\beta_2}+\hbar\omega\right)\exp\left(\beta_2(\varepsilon_C-\varepsilon_0)\right)-\left(\varepsilon_C-\varepsilon_0+\frac{1}{\beta_2}+\hbar\omega\right)\right]. \quad (11)$$

ko‘rinishlarda bo‘lishi aniqlandi. (10)-(11) formulalardan ko‘rish mumkinki, ular [4] ishda olingan formulalar bir xil bo‘lar ekan. (10) va (11) formulalardan olingan hisoblash natijalari 2-rasmda keltirilgan. Agar amorf yarimo‘tkazgichlardagi elektron holatlari zichligi taqsimoti uchun tanlangan empirik model to‘g‘ri bo‘lsa va Kubo-Grinvud formulasini elektronlarni optik o‘tishlariga to‘g‘ri moslashtirilsa yutilish koeffisiyeti spektrlarini fundamental sohasidagi parsial spektrlarini (1) va (2) ko‘rinishdagi Kubo-Grinvud formulasidan hisoblanganda bu formuladagi aniq integralni chegaralari to‘g‘ri olinsa. olinadigan natijalar bir xil bo‘lar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zainobidinov S. Ikramov R.G. Nuritdinova M.A. Zhalalov R.M. Dependence of the Urbach energy on the Fremi level in a-Si:h films. Ukr.J.Phys. 2008. V. 53. N 12. P. 1177-1180.
2. S.V. Ivliev. The Kubo-Greenwood formula as a result of the random phase approximation for the electrons of the metal. IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 941(2017) 012047 P. 1-5 .
3. R.G.Ikramov, A.A.Mamaxanov, M.A. Nuriddinova, R.M. Jalolov, Kh.M. Muminov, and B.Q. Sultonov. Calculation of the interband absorption spectra of amorphous semiconductors using the Kubo-Greenwood formula. Jornal of Applied and Engineering, 2022, Vol. 25, No 5, p.767-772
4. Zaynobidinov S., Ikramov R.G., Jalalov R.M., Nuritdinova M.A. Raspredeleniya plotnosti elektronnых sostoyaniy v razreshennых zonax i mejzonnыye poglощyeniya v amorfnых poluprovodnikax. //Optika i spektroskopiya. 2011, T. 110, № 5. C. 813-818.
5. Amorfnыye poluprovodniki /pod red. M.Brodskogo.M. Mir.1982.419 C.
6. D. Redfield, “Energy-band tails and the optical absorption edge; the case of a-Si:H,” Solid State Communications, 2014.V.44.P. 1347–1349.
7. Ikramov R., Nuriddinova M., Muminov K. and Zhalalov R. Temperature Dependence of Urbach Energy in Non-Crystalline Semiconductors. Optics and Photonics Journal. 2020. V.10 P.211-218.

Uch kalsiy alyuminatda elektr o‘tkazuvchanlik

J.R. Nematullayev
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
E-mail: jasurnematullayev@gmail.com

Aytish kerakki, hozirgi kunda texnologik rivojlanish yuksalgani sari energetikada, yuqori texnologik qurilmalarda, mikro va nanoelektronikada qo‘llaniladigan materiallarni elektr, issiqlik, fizik va kimyoviy xossalari ma’lum talablarga qat’iy javob berishi zarurati yuzaga kelmoqda.

Birinchi marta uch kalsiyli alyuminat mineral kukuni bilan temir oksidi, grafit, temir karbonli nanozarralar aralashmasidan tayyorlangan kompozit namunalarda elektr qarshilikni to‘ldiruvchilar konsentrasiyasiga bog‘lanishi o‘rganilganda va o‘tkazuvchan nanozarralar konsentrasiyasi kritik qiymatga yetganda qarshilikni keskin kamayishi aniqlandi. Keskin kamayishning ro‘y berishi Fe_2O_3 учун B_1=0.4 , grafit uchun, B_2=0.5 Fe_2CO_5 uchun, B_3=0.6 hajmiy ulush qiymatlarida ro‘y berdi [1].

Metallardan farqli o‘laroq, yarimo‘tkazgich va dielektriklar yuqori EYUK va issiqlik o‘tkazuvchanlikda elektron ulushini kuchliligi bilan xarakterlanadilar. Lekin ularda elektr o‘tkazuvchanlik past bo‘ladi. TermoEYUK, elektr o‘tkazuvchanlik va issiqlik o‘tkazuvchanlikni eng optimal ravishda tanlashda eng yaxshi termoelektrik material sifatida kuchli legirlangan yarimщtkazgich yoki yarim metallar bo‘lishi aniqlangan (ularda zaryad tashuvchilar konsentrasiyasi ~10^{19} $см^{-3}$). Quyidagi rasmda termoelektrik asllikni temperaturaga bog‘lanishi keltirilgan.

Bulardan ko‘rinadiki, o‘lchamsiz termoelektrik asllik eng yaxshi materiallarda xam ikkidan oshmaydi, ikkinchidan ZT kattalik temperaturaga ekstrimal xolatda bog‘lanishga ega. ZT kattalikni temperaturaga bog‘lanishida muayyan temperaturada maksimumlarni xosil bo‘lishi, konkret ishchi temperatura uchun eng samarali termoelektrik material tanlash imkonini beradi. Termoelektrik materiallar ishchi temperaturaga qarab uchta guruxga bo‘linadi.



1-rasm. Istiqbolli materiallar ZT=ϕ(T) bog‘lanishi.

1) Past temperaturali 273–673 ^{0}C orasida, asosan vismut va surma xolkogen;
2) O‘rta temperaturali 673–873 ^{0}C orasida, bular qo‘rg‘oshin tellur, germaniy va qalay;
3) Yuqori temperaturali 873 ^{0}C dan baland, kremniy-germaniy qotishmalar.

Aytish kerakki, eng yaxshi termoelektrik asllikka ega material vismut-tellurda xam ZT qiymati birdan ortmaydi. Termolektrik aslligi past bo‘lgan materiallarda termo EYUK past bo‘lib, ularni qo‘llash chegarasini cheklaydi. Shuning uchun birinchi navbatda termoelektrik asllikni ZT orttirish uchun ularni termoelektrik samarani belgilovchi xossalarini optimallashtirish kerak. Bunday usulda termoelektrik xossalarini o’z bo‘lsada orttirish mumkin. Optimallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni yaratish mumkin:

a) zarra tashuvchilar konsentrasiyasini optimallash;
a) taqiq zona kengligini optimallash;
v) material kimyoviy tarkibini optimallash.

Mahalliy minerallar yordamida tayyorlangan kompozitlar elektr o‘tkazuvchanligini to‘ldiruvchi konsentratsiyasiga bog‘lanishi grafigidan foydalanib kerakli qarshilikka ega material olishda amaliy foydalanish mumkin. Shuningdek olingan natijalar kompozitlar o‘tkazuvchanligi haqida tasavvurlar kengayishiga xamda uni yangi tadqiqotlar o‘tkazishga zamin bo‘ladi.

Tayyorlangan namunalarda kuzatilgan Zeyebek effekti temir karbonili aralashmada sezilarli bo‘lgani uchun shu yo‘nalishda izlanishlarni davom etdirilishi EYUK qiymatini ko‘tarilish imkonini berishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Михайлин Ю.А. Специальные полимерные композиционные материалы. – СПБ.: Научные основы и технологии, 2009. 660-стр.

СТАТИСТИЧЕСКИЕ ТОКИ В $pSi–nSi_{1-x}Sn_x$ ($0 \le x \le 0.04$) – СТРУКТУР, ПРИ КОМНАТНЫХ УСЛОВИЯХ

Х.М. Мадаминов
Андижанский государственный университет

Как известно, очень важным показателем p-n перехода, является его вольт-амперная харакеристика (ВАХ). Вид кривых ВАХ позволяет рассуждать о тех или иных свойствах p-n перехода. Поскольку обычно, создания p-n переходов затрудняется образованием различного рода поверхностных состояний, которые резко снижают электрические параметры изготовленных на их основе приборов. Полученный p-n переход в едином технологическом цикле обусловливает уменьшения плотности поверхностных дефектов. Учитывая это обстоятельство, исследуемые $pSi\text{-}nSi_{1-x}Sn_x$ структуры были получены в едином технологическом цикле методом жидкофазной эпитаксии.

В ходе поставленных экспериментов были измерены темновые ВАХ (рис. 1). Измерение ВАХ было проведено при комнатной температуре T=293 K в режимах прямого тока (рис. 1a).



a) b)

Рис. 1. Прямые ветви ВАХ $pSi–nSi_{1-x}Sn_x$ гетероструктур (a) и их сублинейные участки (b) при комнатной температуре

ВАХ исследованных образцов твердого раствора (ТР) содержит сублинейный участок. На рис. 1b изображен сублинейный участок ВАХ, перестроенный в полулогарифмическом масштабе. Нетрудно убедится, что в этих координатах сублинейный участок выпрямляется и удовлетворительно описывается экспоненциальной зависимостью типа

$$V \approx V_0 \cdot \exp(JA) \qquad (1)$$

Теоретические исследования процессов амбиполярного транспорта неравновесных носителей в $p\text{-}n\text{-}n^+$-структурах показывают, что ВАХ, описываемое выражением (1), может возникать в условиях эффекта инжекционного обеднения, впервые предсказанного Лейдерманом, Карагеоргий-Алкалаевым [1].

Этот эффект имеет место в условиях развитой аккумуляции носителей у $n\text{-}n^+$-перехода n-базы, обусловливающей встречные направления диффузии и дрейфа. При этом благодаря инжекционной модуляции заряда глубоких примесей имеет место спад концентрации неравновесных носителей тока n, линейный рост скорости амбиполярного дрейфа v_a с ростом тока в виде

$$\nu_a = a \cdot D_p \cdot J \quad (2)$$

где $a = \left(2qN_t D_n\right)^{-1}$, q - заряд электрона, D_n, D_p - коэффициенты диффузии электронов и дырок, соответственно; N_t - концентрация глубоких примесей.

Как показано в [2, 3] коэффициент A в (1) определяется по формуле

$$A = a \cdot W \quad (3)$$

График I(V) на рис. 1b позволяет оценить параметра «a» по формуле

$$a = \frac{1}{W}\ln\left(\frac{V_2}{V_1}\right) \cdot S/(J_1 - J_2) \quad (4)$$

где W - длина n-базы, S - площадь поперечного сечения образца. Вычисление по формуле (2) показывает, что значения параметра a = $6.58 \cdot 10^3$ см/А и концентрация глубоких примесей ответственных за появление сублинейного участка в виде (1), при комнатной температуре, значение которого составляло $N_t = 5.3 \times 10^{12}$ $см^{-3}$.

Здесь уместно добавить, что удельное сопротивление эпитаксиального слоя, определенное по методу Холла составляет 0.8 Ом·см, однако все полученные характеристики свидетельствуют о том, что между эпитаксиальной пленкой и подложкой образуется слой с другими характеристиками, иначе такие ВАХ не наблюдаются, и, следовательно, не может наблюдаться экспоненциальная зависимость (1).

Таким образом, полученные результаты позволяют сделать вывод о том, что наличие сублинейного участка на ВАХ p-n-n^+-структур на основе ТР кремний-олово связано с эффектом инжекционного обеднения.

Литература

1. Leiderman A.Yu., Karageorgy-Alkalaev P.M. On the theory of sublinear current-voltage characteristics of semiconductor structures // *Solid State Communications,* 1978, vol. 25, iss. 10. pp.781-783.

2. Зайнабидинов С.З., Лейдерман А.Ю., Каланов М.У., Усмонов Ш.Н., Бобоев А.Й. Особенности электрофизических свойств p–n структур на основе непрерывного твердого раствора n-Ge – p-$(Ge_2)_{1-x-y}(GaAs)_x(ZnSe)_y$ // Узбекский физический журнал. 2015. Т. 17, № 5. С.301-305.

3. Саидов А.С., Лейдерман А.Ю., Усмонов Ш.Н., Амонов К.А. Эффект инжекционного обеднения в p-Si−n-$(Si_2)_{1-x}(ZnSe)_x$ ($0 \le x \le 0.01$) гетероструктуре // ФТП. 2018. Т. 52, № 9. С.1066-1070.

THE EFFECTIVE ROLE OF TEMPERATURE IN IMPROVING THE ELECTRICAL CONDUCTIVITY AND THERMOPOWER OF n-PbTe FILMS

S.M. Otajonov[1], T. Akhmedov[1], K.Botirov[1], N.Yunusov[2]
Fergana State University[1], Tashkent state technical university[2]

It is known that in order to create film thermoelectric receivers of infrared radiation (IR), it is necessary to use highly efficient materials. The class of such materials includes lead chalcogenide, which are distinguished by a high efficiency for reporting relatively large values of $\alpha^2\delta$ (α- thermopower coefficient, δ-electrical conductivity) and low inertia [1,2].

It was shown in [3–6] that lead chalcogenide films obtained by vacuum evaporation have higher thermopower coefficient values compared to bulk crystals with the same concentration of charge carriers. The authors suggested that this phenomenon is associated with the appearance of an additional scattering mechanism, associated with potential barriers created in the films by inter-block boundaries. In [7, 8], one of the possible reasons for the appearance of barriers is the deformation of a crystal near inter-block boundaries (dislocation walls).

In this regard, it is of interest to study the technology of obtaining and thermoelectric properties of lead chalcogenide films in order to increase and stabilize their operating parameters. In this work, we have studied the technology of obtaining and electrical properties of deposited n-PbTe films.

To find the optimal technology for obtaining films, the influence of the temperatures of the evaporator and substrate, the distance from the evaporator to the substrate, and the deposition rate were studied. Figure 1 shows curve (2) of the dependence of $\alpha^2\sigma$ on the substrate temperature. For comparison, curve (1) of a similar dependence, constructed according to the data of [6], is shown. Studies have shown that an increase in the substrate temperature to 350÷370^{0}C leads to an increase in $\alpha^2\sigma$ due to an increase in Ϭ because diffusion processes, the intensity of which increases with temperature, lead to sintering of the sawn layer, i.e., to an increase in blocks (decrease in dispersion). Above these temperatures, the thermoelectric properties of the films begin to noticeably deteriorate [9]. It can be assumed that, starting from these temperatures, intensive reevaporation of the components of the film material occurs, which leads to a significant shift in the stoichiometry of the condensed substance.



Fig.1. Curve of dependence of α 2 T on substrate temperature (T)



Fig.2. Dependence of the Thermopower coefficient of n-PbTe films on the thickness deposited layer

Studies of the adhesion of thermoelectric films to the substrate showed that this parameter also depends on the thickness of the films. With increasing thickness, adhesion deteriorates. So, for example, the adhesion force of mica and a film 1 μm thick reaches 5.7 kg/cm^2, and with a film 2 μm thick, -0.4 kg/cm^2. The highest adhesion force was observed on a nitrocelluloid substrate of ~16 kg/cm^2, and this result was obtained on a film condensed on a substrate heated to softening.

At substrate temperatures below 300^{0}C, films condensed onto mica have a higher value of $\alpha^2\sigma$ than films on polyimide. However, as the condensation temperature increases to 350÷370^{0}C, this parameter is equalized on both types of substrates [11].

It is known that lead chalcogenides interact intensively with oxygen, and the latter is an acceptor impurity for them. Due to the fact that the films have a relatively small thickness and a significant surface, this circumstance imposes restrictions on the experimental study of the temperature behavior of thermoelectric parameters.

It can be concluded that no significant changes in the band structure and scattering mechanisms are observed in n-PbTe films [12, 13]. The higher the carrier concentration in the films, the lower α_{max}, but these films have smoother α(T) curves. Therefore, for such films, it is easier to choose substrates that would provide the condition

$$\frac{\alpha(T)}{\chi_s(T)} = const$$

(χ_s -substrate thermal conductivity) required in thermoelectric converters.

Figure 6 shows the relative change in the thermopower coefficient (α) and electrical conductivity (δ) during storage in air for one year depending on the thickness of the films. As can be seen from these data, in films up to 1.7 μm thick, α does not actually change, however, the electrical conductivity drops sharply, which leads to a noticeable decrease in the thermoelectric power factor $\alpha^2\delta$. For d>1.7 μm, it decreases by 10–40%, and it is difficult to trace the correlation between the change in electrical conductivity and the film thickness; the thermoelectric coefficient increases, and the thicker the film, the more significant this increase. In films with a thickness of 2 to 3.5 μm, the thermoelectric power factor changes by less than 10% [14, 15]. In our opinion, in terms of the stability of parameters during operation and storage, it is advisable to obtain sensors of the specified thickness.

Thus, the technology for obtaining and studying the temperature dependences of n-PbTe thermoelectric films described in the work suggests that these films can be used in thermopiles and thermoelectric branches of IR sensors. The totality of the present data and studies to some extent confirms the barrier consideration of the nature of the thermopower in n-PbTe films.

References

1. Hang-TianLiuQiangSunYan ZhongCheng-LiangXiaYue ChenZhi-GangChenRan Ang. Achieving high-performance n-type PbTe via synergistically optimizing effective mass and carrier concentration and suppressing lattice thermal conductivity//Chemical Engineering Journal 428 (2022) 132601Available online 24 September 20211385-8947/© 2021 Published by Elsevier B.V.

2. K. Hoang, S.D. Mahanti, Electronic structure of Ga-, In-, and Tl-doped PbTe: a supercell study of the impurity bands.// Phys. Rev. B. 78 (8) (2008), https://doi.org/ 10.1103/PhysRevB.78.085111.

3. M.D. Nielsen, E.M. Levin, C.M. Jaworski, K. Schmidt-Rohr, J.P. Heremans, Chromium as resonant donor impurity in PbTe.//Phys. Rev. B 85 (2012), 045210.

4. Y.u. Xiao, H. Wu, W. Li, M. Yin, Y. Pei, Y. Zhang, L. Fu, Y. Chen, S.J. Pennycook, L. i. Huang, J. He, L.-D. Zhao, Remarkable roles of Cu to synergistically optimize phonon and

carrier transport in n-type PbTe-Cu2Te.// J. Am. Chem. Soc. 139 (51) (2017) 18732–18738.
5. T Akhmedov, S M Otajonov, Ya Usmonov, M M Khalilov, N Yunusov and A K Amonov Optical properties of polycrystalline films of lead telluride with distributed stichiometry.. Journal of Physics: Conference Series. 1889 (2021) 022052. doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022052
6. S M Otajonov, T Akhmedov, M M Khalilov, N Yunusov, U Mamadzhanov, N M Zhuraev Effective dielectric permeability and electrical conductivity of polycrystalline PbTe films with disturbed stoichiometry.. Journal of Physics: Conference Series. 2131 (2021) 052008. doi:10.1088/1742-6596/2131/5/052008
7. S M Otazhonov, M Kh Rakhmonulov, M M Khalilov, K A Botirov, N Yunusov. Effect of group VII elements on strain sensitivity of polycrystalline films PbTe, PbS. European Science Review Scientific journal № 1–2 2021 (January – February), doi.org/10.29013/ESR-21-1.2-35-38.
8. Y.Z. Pei, Z.M. Gibbs, A. Gloskovskii, B. Balke, W.G. Zeier, G.J. Snyder, Optimum carrier concentration in n-type PbTe thermoelectrics.//Adv. Energy Mater. 4 (2014) 1400486.
9. C.C. Stoumpos, S. Wang, T.P. Bailey, L.D. Zhao, C. Uher, M.G. Kanatzidis, Subtle roles of Sb and S in regulating the thermoelectric properties of n-type PbTe to high performance.//Adv. Energy Mater. 7 (2017) 1700099.
10. A.D. LaLonde, Y. Pei, G.J. Snyder, Reevaluation of PbTe1-xIx as high performance n-type thermoelectric material.//Energy Environ. Sci. 4 (6) (2011) 2090, https://doi. org/10.1039/c1ee01314a.
11. G.Z. Bagieva, G.M. Murtuzov, G.D. Abdinova, E.A. Allahverdiev, D.Sh. Abdinov / Influence of structural defects on the thermal conductivity of poly- and single-crystal PbTe / Inorganic materials. - 2012. Vol.48, No. 8. – P. 901-904
12. Z.F. Agaev, G.Z. Bagieva, J.Z. Naftalieva, B.Sh. Barkhalov / Electrical properties of PbTe single crystals with an excess of lead // Physics of the Solid State. - 2008. - No. 3. - P. 92-94.
13. Z. Dashevsky, S. Shuzterman, M.P. Dariel, I. Drabkin Thermoelectric efficiency in graded indium-doped PbTe crystals // Journal of Applied Physics. – 2002. – Vol. 92, №3. – P. 1425-1430
14. Tingjun Wu, Jae-Hong Lim, Kyu-Hwan Lee, Jiwon Kim,* and Nosang V. Myung Te-Embedded Nanocrystalline PbTe Thick Films: Structure and Thermoelectric Properties Relationship. pp-2-12. Coatings 2021, 11, 356. https://doi.org/10.3390/coatings11030356
15. B,B. Dzundza, L. Nykyruy, T. Parashchuk, E. Ivakin, Y. Yavorsky, L. Chernyak, Z.Dashevsky. Transport and thermoelectric performance of n-type PbTe films. Physica B Condensed Matter April 2020.

Sb_2Se_3 ASOSIDA TAYYORLANGAN YUPQA QATLAMLI QUYOSh ELEMENTLARIDA FOYDALI ISh KOEFFITSIENTINING QALINLIKGA BOG‘LIQLIGINI ANIQLASh

M. Bekchanov[1], R. Raximboyev[1], K. Yakubov[1], R. Bazarbayev[1], D. Qurbanov[1], S. Karajanov[2]

[1]Urganch davlat universiteti, [2] Norvegiya energiya texnologiyalari instituti.

Zamonaviy texnika va texnologiyaning shiddatli ravishda rivojlanishi o‘rtacha rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda ham muqobil energiya manbalariga bo‘lgan qiziqishlarni orttirib yubordi. Muqobil energiya manbalaridan biri quyosh energiyasi hisoblanib, yilning asosiy qismi ochiq va issiq kelishi tufayli yurtimizda quyosh energiyasidan foydalanishning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha afzalliklarga ega. Misol uchun uyingiz tomining 15-20 metr kvadrat qismiga jami 15 kW quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatsangiz uyingiz barcha elektr ta’minoti uchun mustaqil elektr manbaiga ega bo‘ladi degani. Aholi sonining oshib borishi, sanoat korxonalari, zavodlarning ko‘payishi, tabiiyki energiyaga bo‘lgan ehtiyojni orttirib yubordi . Bu kabi energiya inqirozini oldini olishning birdan – bir yo‘li bu qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanishdir. Bu sohaga davlatimiz tomonidan ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda[4].

Quyosh elementlarining foydali ish koeffitsientini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Mahsulot tannarxini pasaytirishda yupqa qatlamli quyosh elementlaridan ham foydalanish mumkin. Yupqa qatlamli quyosh elementlarini olish texnologiyasi oson va tannarxi arzon bo‘lganligi uchun ular istiqbolli hisoblanadi. Foydali ish koeffitsientini kamaytirmagan holatda, qalinlikni kamaytirish mahsulot sarfining kamayishiga xizmat qiladi [3].

Ushbu tadqiqotda SCAPS modellashtirish dasturida Sb_2Se_3 asosida tayyorlangan yupqa qatlamli quyosh elementlarida qalinlikning foydali ish koeffitsientiga bog‘liqligini o‘rganildi[1]. Yupqa qatlamli quyosh elementlarining turli qalinliklardagi foydali ish koeffitsientlari tadqiq qilindi. Natijalar Sb_2Se_3 quyosh elementlarining qalinligi ularning samaradorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi va optimal ish koeffitsienti qalinlikka bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Hisoblash ishlari hozirgi kunda Si asosida tayyorlangan yupqa qatlamli quyosh elementi bilan solishtirilgan.

1-Jadval Sb_2Se_3 va Si asosida tayyorlangan quyosh elementi parametrlari

Parametrlar	**Sb_2Se_3**	**Si**
Qalinligi (nm)	50-600	50-600
Taqiqlangan Zona kengligi (eV)	1.2	1.12
Elektron affinitiy (eV)	4	4
Dielektrik singdiruvchanlik	18	11.9
CB effektiv konsentratsiya cm^{-3}	$2.5 \cdot 10^{18}$	$1.3 \cdot 10^{19}$
VB effektiv konsentratsiya cm^{-3}	$1.8 \cdot 10^{19}$	$7.6 \cdot 10^{11}$

Elektronning issiqlik tezligi , cm/s	$1 \cdot 10^7$	$1 \cdot 10^7$
Kovakning issiqlik tezligi , cm/s	$1 \cdot 10^7$	$1 \cdot 10^7$
Elektron harakatchanligi , cm^2/V/s	$1.5 \cdot 10^1$	0.014
Kovak harakatchanligi cm^2/V/s	$5.1 \cdot 10^1$	0.045
Donor aralashma kansentratsiyasi N_d cm^{-3}	$1 \cdot 10^{17}$	0
Akseptor aralashma kansentratsiyasi N_d cm^{-3}	0	0

Sb_2Se_3 va Si asosida tayyorlangan yupqa qatlamli quyosh elementlarini SCAPS 1D dasturida modellashtirish uchun 1-jadvalda keltirilgan parametrlar olindi.

Ushbu tadqiqotda SCAPS modellashtirish dasturida Sb_2Se_3 asosida tayyorlangan yupqa qatlamli quyosh elementlarida qalinlikning foydali ish koeffitsientiga bog‘liqligini o‘rganildi[2]. Quyidagi modellashtirish yordamida olingan natijalar keltirilgan:

2-Jadval: Qalinlikni foydali ish koeffits ientiga bog‘liqligini bog‘liqligi.

Qalinlik (nm) Sb2Se3	Foydali ish koeffisienti	Qalinlik (nm) Si	Foydali ish koeffisienti
50	13,3	50	13.29
100	13,28	100	13.23
150	13,26	150	13.14
200	13,23	200	12.99
250	13,21	250	12.78
300	13,19	300	12.54
350	13,16	350	12.28
400	13,14	400	12.11
450	13,12	450	11.89
500	13,09	500	11.74
550	13,07	550	11.52
600	13,05	600	11.34

Yupqa qatlam qalinligining 50-600 nm oralig‘ida Si asosida tayyorlangan quyosh elementlarining FIKi Sb_2Se_3 asosida tayyorlangan quyosh elementiga nisbatan keskin kamayganini ko‘rish mumin (1-rasm).

Natijalar yupqa qalinliklarda Sb_2Se_3 asosida tayyorlangan yupqa qatlamli quyosh elementlari, yupqa qatlamli Si asosidagi quyosh elementlariga qaraganda samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.



1-rasm. Sb_2Se_3 asosida tayyorlangan yupqa qatlamli quyosh elementining qalinligini foydali ish koeffisientiniga bog‘liqligi

Adabiyotlar:

1. Marc Burgelman, Koen Decock, Alex Niemegeers, Johan Verschraegen, Stefaan Degrave, SCAPS manual, 2021
2. Koen Decock & Marc Burgelman, SCAPS 3.0 An introduction
3. В. В. Бессель, В. Г. Кучеров, Р. Д. Мингалеева, Изучение солнечных фотоэлектрических элементов. Учебно-методическое пособие. Москва 2016.
4. A.T.Mamadalimov, M.N.Tursunov, Yarimo‘tkazgichli quyosh elementlari fizikasi va texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T. Universitet, 2002.- 94

DISKRET FURE O‘ZGARTIRISH YORDAMIDA AYDAR-ARNASOY KO‘LI TIZIMI TASVIRINING RAQAMLI MODELINI ISHLAB CHIQISH

N.A. Qarshiboyev
Jizzax politexnika institute

Aydar-Arnasoy ko‘l tizimi tasviring raqamli modeli Fure to‘g‘ri va teskari o‘zgartirishlari yordamida amalga oshirildi. Bunda, 1-rasmda ko‘rsatilgan gidrogelogik ob’ektlar tasvirlariga raqamli ishlov berish algoritmidan foydalanamiz. Dastlab Aydar-Arnasoy ko‘l tizimining kosmik tasviri dasturga yuklab olindi. Bunda, tasvirni yuklashda biz imread buyrug‘idan foydalanamiz. Tasvirni ko‘rish uchun imshow(I) buyrug‘ini qo‘llaymiz (2-rasm). Tasvirning 256x256 o‘lchami hosil qilamiz (3-rasm). R, G va B matritsalarini ajratib olindi (4-5-6-rasmlar). Fure to‘g‘ri va teskari o‘zgartirish funksiyalaridan foydalanilgan holda spektrlar fazolari hosil qilindi (7-8-9-rasmlar) va spektrlar matritsalari yig‘ildi (10-rasm). F1, F2 va F3 spektrlar uchun Furening teskari o‘zgartirish operatori asosida natija olindi (11-rasm). Natijada tasvir tiklanadi (12-rasm). Aydar-Arnasoy ko‘li tizimi tasvirining diskret Fure o‘zgartirish yordamida ishlab chiqilgan raqamli modeli umumiy holati 12-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm.Arnasoy ko‘llar tizimining kosmik tasviri.



2-rasm.Arnasoy ko‘llar tizimi tasvirining kvadrat kesimi.



3-rasm. Arnasoy ko‘llar tizimi tasvirining raqamli matritsasidagi piksellarning tashkil etuvchilari R ga tegishli matritsalar ajratib olingan ko‘rinishi.



4-rasm. Arnasoy ko‘llar tizimi tasvirining raqamli matritsasidagi piksellarning tashkil etuvchilari G ga tegishli matritsalar ajratib olingan ko‘rinishi.



5-rasm. Arnasoy ko‘llar tizimi tasvirining raqamli matritsasidagi piksellarning tashkil etuvchilari B ga tegishli matritsalar ajratib olingan ko‘rinishi.



6-rasm.AR matritsalarga Furening to‘g‘ri shakl o‘zgartirishi asosida hosil qilingan spektrlar fazolari.



7-rasm. AG matritsalarga Furening to‘g‘ri shakl o‘zgartirishi asosida hosil qilingan spektrlar fazolari.



8-rasm.AB matritsalarga Furening to‘g‘ri shakl o‘zgartirishi asosida hosil qilingan spektrlar fazolari.



9-rasm. Fq[F1 F2 F3] umumlashgan spektrlar matritsalari yig‘indisi.



10-rasm. F1, F2 va F3 spektrlar uchun Furening teskari o‘zgartirish operatori asosida olingan natija.



11-rasm.Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi tasvirining tiklangan holati.



12-rasm.Aydar-Arnasoy ko‘li tizimi tasvirining diskret Fure o‘zgartirish yordamida ishlab chiqilgan raqamli modeli

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Гонсалес Р. Цифровая обработка изображений Ғ Р. Гонсалес, Р. Вудс. - М. : Техносфера, 2005. - 1072 с.
2. Претт У. Цифровая обработка изображений: Пер. с англ. - М.: Мир. 1982. - Кн. 1 и 2
3. Тавбоев С. А., Каршибоев Н. А. МЕТОДЫ УЛУЧШЕНИЯ КОНТРАСТА ИЗОБРАЖЕНИЙ ПРИ НЕЧЕТКОЙ ИСХОДНОЙ ИНФОРМАЦИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 427-432.
4. Tovbaev Sirojiddin Karshiboev Nizomiddin International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 4 Issue 4, June 2020 Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470
5. Tavboyev Sirojiddin Akbutayevich, Qarshiboyev Nizomiiddin Abdumalikovch Application of the theory of indistinct sets in the estimation of quality of educational process // Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 12.2020

2D o‘lchamdagi p-n-o‘tishli diod VAX ning yorug’lik quvvatiga bog’liqligi

M.G. Dadamirzaev, M.O. Qosimova, A.S. Maxmudov
Namangan muhandislik - qurilish institute

Ikki yarimo'tkazgichdan tashkil topgan p-n o’tish, rektifikatorlar [1], fotodetektorlar [2-6], fotovoltaiklar [7-11] va yorug'lik chiqaradigan diodlar kabi elektron va optoelektronik qurilmalarning [12-13] asosiy funktsiyalaridan biridir. 3D o’lchamli p-n-o’tishlarini ishlab chiqarishda ionli injektsiyadan kelib chiqqan atomik legirlash yoki sirt o’zgarishi, yarimo’tkazgichning elektr xususiyatlarini va kristal tuzilishini o’zgartiradi. Bundan tashqari, yarimo’tkazgichli qurilmalarning kichrayib, turli kvant effektlari asta-sekin sezilarli bo’lmoqda. Bu esa, klassik qurilma dizayin nazariyasi endi qo’llanilmasligini ko’rsatadi. So’ngi yillarda, atomik nozik ajoyib xususiyatli ikki o’lchovli (2D) materiallar katta qiziqish uyg’otmoqda. Ba’zi 2D p-n-o’tishlar, masalan, WS_2, WSe_2 va qora fosfor (BP) ning elektrostatik maydon xususiyatlari yarimo’tkazgichlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi [10,14]. Diodlarga tashqi maydon sifatida yorug’likdan foydalanish ancha qo’shimcha afzalliklar yaratadi. Masalan, yorug’likni masofadan turib ham yuborish mumkin. Bu aniq boshqariladigan, tez almashtiriladigan va juda kam energiya sarf qiladigan zamonaviy integral optoelektronik ulanish sxemalari uchun katta ahamiyatga ega

Diodlarni boshqarish uchun yorug’lik tashqi simulyator sifatida ishlatiladi. [17] ishda yorug’lik ikki o’lchovli p-n birikmalarining o’tkazuvchanlik zonalarini shakllanishiga olib kelishi ko’rsatib berilgan. Tajriba natijalarining ko’rsatishicha, p-n-o’tishdagi asosiy zaryad tashuvchilarning zichligi tushayotgan yorug’lik quvvatiga bog’liq bo’ladi. Qora fosforli p-n-o’tishlarda fotoinduksiyalangan elektron-kovak juftlarini ajratish uchun fotovoltaik ilovalardan foydalaniladi. Shu bilan birga, 1-rasmda ko’rsatilganidek, yorug’lik quvvatining ortishi bilan fotovoltaik effektni kuzatish mumkin.



1-rasm. Turli hil yorug’lik quvvatidagi diodning volt-amper xarakteristikasi



2-rasm. P_{el} turli yorug’lik quvvatlarida U_{DS} ning funksiyasi sifatida

1-rasmdan ko’rinib turibdiki, yorug’lik quvvati ortgan sayin salt yurish kuchlanishining hamda teskari tokning qiymatlari ortadi. Bu esa fotovoltaik mexanizmga mos keladi.

Diodlarni ishlab chiqarishda ularning quvvatini hisoblash muhim ahamiyatga ega. Tok kuchi va kuchlanish qiymatlarini bilgan holda diodning quvvatini $P_{el} = I_{DS}U_{DS}$

ifoda yordamida hisoblanadi. 2-rasmda P_{el} sx**emasi sifatida** U_{DS} **ga bog’liqlik grafigi keltirilgan [17]**

Biroq, hozirgacha keltirilgan ishlarda 2D o’lchamli materiallarda yorug’lik bilan ishlaydigan p-n-o’tishli diodlar uchun yorug’lik quvvatining ortib borishi bilan teskari tok o’zgarishi nazariy jixatdan etarli darajada o’rganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu ishda maqsadimiz, 2D o’lchamli materiallarda yorug’lik bilan ishlaydigan p-n-o’tishli diodlar uchun yorug’lik quvvatining ortib borishi bilan teskari tok o’zgarishini nazariy jixatdan o’rganish va bu fotovoltaik mexanizmga mos kelishini, xosil bo’lgan fototok teskari tokni ortirishini ko’rsatishdan iborat

Yarimo’tkazgichli 2D materiallarga asoslangan fotodetektorlar uchun yarimo’tkazgich volt-amper xarakteristikasi fototoklarining yorug’lik quvvatiga bog’liq xolda o’zgarishini ko’rib chiqamiz. Bunda 2D o’lchamli p-n-o’tishning umumiy tokini hisoblash uchun Shokli tenglamasidan foydalanish mumkin

$$I_{ds}=\frac{mU_T}{R_s}W\left(\frac{I_sR_s}{mU_T}\exp(\frac{U_{ds}+I_sR_s}{mU_T})\right)-I_s \quad (1)$$

Bu erda, I_s – to’yinish toki, m -p-n-o’tish VAX ning noideallik koeffitsienti, $U_T=\frac{kT}{q}$ issiqlik kuchlanishi, W – Lambert funksiyasi,

R_s – diodga ketma-ket ulangan qarshilik. (1) ifodadan foydalanib, 2D o’lchamdagi $p-n-$ o’tishning volt-amper xarakteristikasini olishimiz mumkin. 2D o’lchamdagi fotodiodning umumiy tokini (1) ifodadan foydalangan holda quyidagicha keltirib hisoblashimiz mumkin:

$$I_{ds}=\frac{mU_T}{R_s}W\left(\frac{I_sR_s}{mU_T}\exp(\frac{U_{ds}+I_sR_s}{mU_T})\right)-I_s-I_c \quad (2)$$

bunda, $I_c=eI_0(1-\beta_0)$, $I_0=\alpha G(1-R)$ – yorug’likning intensivligi, $\alpha=A(h\nu-E_g-\Delta\varepsilon)^r$ - yorug’likning yutilish koeffisienti, $h\nu\approx E_g$ bo’lsa, $\alpha=A(\Delta\varepsilon)^r$, E_g – taqiqlangan zona kengligi, ν – yorug’lik chastotasi, $h-$ Plank doimiysi, $\Delta-$ deformasiya potensiali, $r-$ to’g’ri ruxsat etilgan o’tish uchun $r=\frac{1}{2}$, to’g’ri taqiqlangan o’tish uchun $r=\frac{3}{2}$. A - koeffisient to’g’ri ruxsat etilgan o’tish uchun $A=2*10^4$ ga teng, $G=\frac{W\lambda}{hc}$ – yuza birligiga tushayotgan fotonlar soni, $W-$ yorug’lik quvvati, $R=(\frac{n-1}{n+1})^2$ – yorug’likning qaytarish koeffisienti, n – muxitning sindirish ko’rsatkichi, $L=(\frac{2\varepsilon\varepsilon_0}{e}\frac{n_n+p_p}{n_np_p})(\varphi_0+U))^{\frac{1}{2}}-$ xajmiy zaryad qatlami kengligi, $L_s=\frac{D_e}{s}$, $s-$ rekombinatsiya tezligi

Yuqoridagilarni hisobga olib fototok uchun

$$I_c=-\frac{eI_0}{1+\frac{L}{L_s}}=\frac{e\alpha G(1-R)}{1+(\frac{2\varepsilon\varepsilon_0}{e}\frac{n_n+p_p}{n_np_p}(\varphi_0+U))^{\frac{1}{2}}\frac{s}{D_e}}=\frac{eW\lambda(1-R)A(\Delta\varepsilon)^r}{\left(1+(\frac{2\varepsilon\varepsilon_0}{e}\frac{n_n+p_p}{n_np_p}(\varphi_0+U))^{\frac{1}{2}}\frac{s}{D_e}\right)\cdot hc} \quad (3)$$

ifodaga ega bo’lamiz. (3) ni (2) ga qo’ysak,

$$I_{ds} = \frac{mU_T}{R_s} W\left(\frac{I_s R_s}{mU_T}\exp\left(\frac{U_{ds}+I_s R_s}{mU_T}\right)\right) - I_s - \frac{eW\lambda L_s(1-R)A(\Delta\varepsilon)^r}{(L_s+L)\cdot hc} \quad (4)$$

ifodaga ega bo’lamiz. Ushbu ifodadan foydalanib, 2D o’lchamdagi yarimo’tkazgichning turli yorug’lik quvvatlaridagi volt-amper xarakteristikasi uchun quyidagi grafikka ega bo’lamiz (3-rasm).



3-rasm. Turli yorug’lik quvvatlaridagi 2D o’lchamli p-n o’tish volt-amper xarakteristikasi



4-rasm. P_{el} turli yorug’lik quvvatlarida U_{DS} ning funksiyasi sifatida

3-rasmda yorug’lik quvvatining ortib borishi bilan teskari tok o’zgarib borayotganini [17] tajriba natijalari ko’rsatib turibdi. Bu fotovoltaik mexanizmga mos keladi va xosil bo’lgan fototok teskari tokni ortiradi.

Diodning quvvatini $P_{el} = I_{DS}U_{DS}$ **ifodadan foydalanib** hisoblaymiz:

$$P_{el} = IU = \left(\frac{mU_T}{R_s} W\left(\frac{I_s R_s}{mU_T}\exp\left(\frac{U_{ds}+I_s R_s}{mU_T}\right)\right) - I_s - \frac{eW\lambda L_s(1-R)A(\Delta\varepsilon)^r}{(L_s+L)\cdot hc}\right)\cdot U \quad (5)$$

(5) tenglik yordamida turli yorug’lik quvvatlaridagi diod quvvatining kuchlanishga bog’liqlik grafigiga ega bo’lamiz (4-rasm).

4-rasmdan ko’rinib turibdiki, 10nW quvvatdan boshlab, 2D o’lchamli yarimo’tkazgichlar yorug’likni seza boshlaydi. Yorug’lik quvvati ortgan sayin fotovoltaik mexanizm kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, ikki o’lchamli (BP/WSe2/MoTe2) materiallarda yorug’lik bilan ishlaydigan p-n-o’tishli diodlar uchun yorug’lik quvvatining ortib borishi bilan teskari tok o’zgarib borayotganini [17] tajriba natijalari bilan nazariy qilingan hisob-kitob natijalari sifat jixatdan mos tushishi ko’rsatib berildi va bu fotovoltaik mexanizmga mos kelishi, hamda, xosil bo’lgan fototok teskari tokni ortirishi ko’rsatib berildi. Bu esa kam energiya iste’moli bilan ishlaydigan yangi optoelektronik qurilmalar ishlab chiqarishda asosiy funksiyalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. Cheng, R., Wang, F., Yin, L. *et al.* High-performance, multifunctional devices based on asymmetric van der Waals heterostructures. *Nat Electron* **1,** 356–361 (2018). https://doi.org/10.1038/s41928-018-0086-0

2. Yang, T., Zheng, B., Wang, Z. *et al.* Van der Waals epitaxial growth and optoelectronics of large-scale WSe_2/SnS_2 vertical bilayer p–n junctions. *Nat Commun* **8,** 1906 (2017). https://doi.org/10.1038/s41467-017-02093-z
3. Lou, Z., Liang, Z., & Shen, G. Photodetectors based on two dimensional materials. Journal of Semiconductors, 37(9), 091001. (2016). https://doi.org/10.1088/1674-4926/37/9/091001
4. Xia, C., & Li, J. Recent advances in optoelectronic properties and applications of two-dimensional metal chalcogenides. Journal of Semiconductors, 37(5), 051001. (2016). https://doi.org/10.1088/1674-4926/37/5/051001
5. Cheng, R., Li, D., Zhou, H., Wang, C., Yin, A., Jiang, S., … Duan, X. Electroluminescence and Photocurrent Generation from Atomically Sharp WSe2/MoS2 Heterojunction p–n Diodes. Nano Letters, 14(10), 5590–5597. (2014). https://doi.org/10.1021/nl502075n
Ma’lumki muqobil energiyaning keng tarqalgan turlaridan biri bu quyosh energiyasi. Quyosh energiyasi yorug’lik energiyasini elektr energiyasiga aylanishi hisobidan hosil qilinadi. Asosiy texnologik va elektrofizik jarayonlar esa quyosh nuri tushayotgan quyosh panellari elementlarida sodir bo’ladi. Quyosh panellari sirtiga tushayotgan quyosh nurlarini ma’lum qismini yutadi. Energiyaning saqlanish va bir turdan boshqa turga aylanish qonuniyatiga ko’ra yutilgan yorug’lik energiyasi elektr energiyasi aylanadi. Jarayon yarim o’tkazgichlarda kechadigan fotoeffekt hodisalar asosida yuz beradi. Yorug’lik tushayotgan yuzaning o’lchamlari, yoritilganlik darajasi va nurning tushish burchagi ham energiya samaradorligiga katta ta’sir qiladi.Shu o’rinda quyosh panellari 1 kW lik Quyosh panellari 5÷6 m^2 maydonni egallashini inobatga olib quyidagi tahliliy jadvalni keltirish mumkin.

№	Panel quvvati	Egallagan maydoni, (m^2)	Ishlab chiqaradigan elektr energiyasi (yillik)
1	5 kW· soat	30÷60	7500÷12500
2	10 kW· soat	60÷120	15000÷25000
3	20 kW· soat	120÷240	30000÷50000

Quyosh elementlarini juda ko’p joylarda juda ko’p qurilish jihozlarining o’rniga joydan yutish maqsadida foydalanilmoqda. Masalan Solar City kompaniyasi tomonidan qurilish hom ashyolaridan ko’ra uylarni tomini quyosh panellari bilan qoplash taklif etilmoqda. Bu birinchidan tomni qurish uchun sarflanadigan pulning bir qismini tejashga va quyosh paneli band qilishi mumkin bo’lgan joylarni iqtisod qilishga yordam beradi. Shuningdek, inshootlarni derazalariga ishlatiladigan oynalar o’rniga shaffof quyosh elementlaridan foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda ushbu soha mamlakat miqyosida e’tibor qaratilsada, lekin ushbu soxada qilingan ilmiy izlanishlar soni juda oz. Quyida shu kabi izlanishlardan birini va unda kutilgan natijalarni talil qilishimiz mumkin.

Shaffof quyosh elementlari asosan metal oksidlardan yasaladi. Chunki, metal oksidlarning aksariyatining ta’qiqlangan zona kengligi katta va bu uni asosan ultrabinafsha nurlarini yutushini ta’minlaydi. Shuning uchun ushbu materiallar shaffofdir. Eng yaxshi o’rganilgan shaffof quyosh elementlari bu n-ZnO / p-NiO quyosh elementidir. [2]. Ushbu materiallar sintez jarayonida vakansiyalar tufayli n tip o’tkazuvchanlikka ega yarimo’tkazgich hosil bo’ladi. Ya’ni ushbu materiallar sintez qilinganda n-tipli o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. NiOni sintez qilinganda esa p-tipli o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. n-ZnO / p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini ZnO qatlam qalinligiga bog’liq. Olingan

natijalarga ko’ra, ZnO qatlam qalinligi 40 nm bo’lganda n-ZnO/p-NiO quyosh elementi maksimal 7.785% fotogeneratsiya koeffitsientiga erishgan. [2]. Ushbu struktura shaffof bo’lgani uchun uning fotogeneratsiya koeffitsienti juda past. Chunki, u asosan ultrabinafsha nurlarni yutadi va ko’rinarli soxadagi va infraqizil nurlar soxasidagi nurlarni yutmaydi va o’tkazib yuboradi. ZnO qatlam qalinligi 10 nm dan 40 nm gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti 0.55% ga ortgan va qalinlik 40 nm dan 100 nm gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti 1.036% ga kamaygan. [2]. Demak n-ZnO / p-NiO struktura uchun emitter qatlamning optimal qalinligi 40 nm ga tengligi aniqlangan. n-ZnO / p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini ZnO qatlam qalinligiga bog’liq. Aniqlangan emitter qatlam qalinligi optimal bo’lgan n-ZnO / p-NiO quyosh elementining optik parametrlari aniqlandgan. ZnO qatlam qalinligi 40 nm va NiO qatlam qalinligi 5 mkm bo’lgan n-ZnO / pNiO quyosh elementining yutulish o’tish va qaytish koeffitsientlarini yourg’lik to’lqin uzunligiga bog’liq bo’ladi. [2]. Ushbu spektral natijadan ultrabinafsha soxadagi nurlar yutayotganini ko’rishimiz mumkin. Qurilmaning shaffofligi ko’rinarli nurlar soxasida 75% ga teng qolgan 25% nur esa qaytib ketmoqda. Bu uni inshootlarga oyna sifatida foydalanish mumkinligini isbotlaydi. Albatta uning foydali ish koeffitsienti past lekin uyni past energiyali ehtiyojlarini qondirish uchun samarali foydalanish mumkinligi aniqlangan. [1,2,3].

ZnO qatlam qalinligi 40 nm va NiO qatlam qalinligi 5 mkm bo’lgan n-ZnO / p-NiO quyosh elementining yutulish o’tish va qaytish koeffitsientlarini yourg’lik to’lqin uzunligiga bog’liq bo’lishi aniqlangan.[2,3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, quyosh elementlaridan foydalanish salmog’ini oshirish uchun ularni uy qurilishida foydalaniladigan bino qismlari o’rniga foydalanish kerak. Inshootlar uchun oyna sifatida foydalnish mumkin bo’lgan shaffof quyosh elementlari modellashtirish natijalariga ko’ra, ZnO qatlam qalinligi 40 nm bo’lganda n ZnO / p-NiO quyosh elementi maksimal 7.785% fotogeneratsiya koeffitsientiga erishishi aniqlangan. [2,3]. Bu o’z navbatida yorug’likni quyosh panellaridagi faolligini oshirib qurilmalarning foydali ish koeffitsenti selarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quyosh elementlaridan foydalanish istiqbollari. Matyoqubov H.Sh “Янги материаллар ва гелиотехнологиялар” Халқаро илмий конференция тезис ва маърузалари тўплами 20-21 май 2021 йил.

2. R. Aliyev, Sh. Qahramonova, J. G’ulomov. Keng zonali quyosh elementlari asosidagi shaffof quyosh elementlarini modellashtirish orqali optimallashtirish. Вестник магистратуры. 2022. № 5-4 (128)

3. Baxadirxonov M.K., Sodiqov U., Zikrillaev N.F., Norqulov N., Materiallarga elektron ishlov berish, 2007 yil, 5-son, 106−108-betlar.

4. N.F. Zikrillayev, O.B.Tursunov, SH.I. Hamroqulov, G‘.A. Kushiyev. Rux va selen asosidagi binar nanoklasterli kremniyning elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlari Fotoenergetikada nanostrukturali yarimo‘tkazgich materiallar Xalqaro ilmiy anjumani 9-10 oktyabr Toshkent 2020 yil.

5. Б.А. Абдурахманов, А.Ш. Мавлянов, У.Х. Содиков, Н. Норкулов. Новые материалы для солнечных элементов на основе кремния с квантовыми ямами CdS И ZnS Ташкентский государственный технический университет им. А.Р. Беруни, Университетская, 2, г. Ташкент, 700095, Республика Узбекистан Национальный университет Узбекистана

6. П.А.Трошин, Р.Н.Любовская, В.Ф.Разумов, Органические солнечные батареи: структура, материалы, критические параметры и перспективы развития, Российские нанотехнологии, 2008

YARIMO’TKAZGICHLARDA HAJMIY FOTO EYUK NING HOSIL BO’LISHI. DEMBER HODISASI.

S.M. Zaynolobidinova, D.A. Rashidova
Farg’ona davlat unversiteti

Yarimo’tkazgichning biror sirtiga yaqin joyda qo’shimcha zaryad tashuvchilar generatsiyalanadi.Natijada yarimo’tkazgichda zaryad tashuvchilarning taqsimoti buzilib,konsentratsiya gradiyenti vujudga keladi.Bu qo’shimcha zaryad tashuvchilar yoritilgan sirt tomonidan yarimo’tkazgich ichkarisiga tomon diffuziyalanadi.Binobarin,yoritilgan sirt oldida va shu bilan birga yarimo’tkazgich ichkarisida ham musbat va manfiy zaryadlar bir-birlarini neytrallay olmaydilar.Agar yoritilgan sirt oldida musbat zaryadlar manfiy zaryadga nisbatan ko’p bo’lib qolsa,bu soha musbat,yarimo’tkazgichning o’sha sirtidan ichkari sohasi esa manfiy zaryadlanib qoladi. Bu esa yarimo’tkazgichda hajmiy elektr maydonni vujudga keltiradi.Shunday qilib,yarimo’tkazgichda elektr maydon va EYuK hosil bo’ladi.Yarimo’tkazgichlarda bir tekis yoritilmasligi natijasida hosil bo’ladigan bunday hajmiy EYuK odatda Dember EYuK deb yuritiladi.Dember EYuK yarimo’tkazgichning qanday parametrlariga bog’liqligini aniqlaylik.Diffuziyalanmayotgan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi gradiyentiga bog’liq bo’lib ,oqim

$$D_n \Delta n \ , \ D_p \Delta p$$

ga teng.Elektr maydon E ta’sirida vujudga kelgan oqim esa

$$u_n \, nE \ , \ u_p \, pE$$

Yarimo’tkazgich yupqa bo’lsa,sirtiy rekombinatsiya hajmiy effektlarga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin,chunki bunday hollarda sirtiy va hajmiy effektlarni bir-birlari bilan solishtirish mumkin bo’lib qoladi.Yarimo’tkazgichlar sirtiga yaqin joyda berkituvchi qatlam hosil bo’lsa , sirtiy rekombinatsiya effektiv tezligining ortib ketishiga olib keladi,berkitmaydigan qatlam esa sirtiy rekombinatsiya effektiv tezligini kamaytiradi.Yupqa yarimo’tkazgichning yorug’lik tushayotgan sirtiga yaqin joyda berkituvchi qatlam bo’lsa , generatsiyalangan zaryad tashuvchilar sirtda intensiv rekombinatsiyalashadi.Natijada yupqa yarimo’tkazgichning ichki qismidagi generatsiyalangan asosiy bo’lmagan zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi yorug’lik tushayotgan sirtga yaqin joydagi konsentratsiyaga qaraganda katta bo’lib zaryad tashuvchilar yarimo’tkazgichning ichki qismidan sirtiga qarab diffuziyalanadi.Yorug’lik tushayotgan sirtda sirtiy rekombinatsiya yorug’lik tushmayotgan sirtdagidan ancha kichik bo’lsa generatsiyalangan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi yorug’lik tushmayotgan sirt tomonidagiga qaraganda ko’p bo’lib o’sha yo’nalishda diffuziyalanadi.Bu hodisa yupqa yarimo’tkazgichlarda fotoEYuK ning sirtiy rekombinatsiya effektiv tezligining katta va kichik bo’lishiga qarab ishoralarini o’zgartirishga olib keladi.



1-rasm. Yupqa yarimo’tkazgichlarga yorug’lik ta’siri

Yarimo’tkazgich qalin bo’lsa ,yorug’lik asosan yupqa qatlamda yutilgani uchun generatsiyalangan asosiy bo’lmagan zaryad tashuvchilar hamma vaqt ichkariga qarab diffuziyalanadi.Natijada yorug’lik tushayotgan tomoni asosiy zaryad tashuvchilar ishorasi bilan bir xil bo’lgan ishorada zaryadlanadi.Yarimo’tkazgich yupqa bo’lsa ,sirtiy rekombinatsiya ta’sirida yuqorida aytilgani kabi ,yorug’lik tushayotgan tomoni asosiy zaryad tashuvchilar ishorasi qarama-qarshi bo’lgan zaryad bilan qitblanib qolishi mumkin.Shuning uchun bunday hodisani anomal Dember effekti deb yuritiladi.

Yarimo’tkazgichning qalinligini *d* deb olaylik . (1-rasm).

ADABIYOTLAR

1. Azizov M. Yarimo’tkazgichlar fizikasi. T. 1974 yil.
2. Шалимова К.В., Физика полипроводников . М. 1985 год.
3. A. Teshaboev va b. Yarimo’tkazgichlar va yarimo‘tkazgichli asboblar texnologiyasi. T. 2006 yil.
4. Zaynobiddinov S, Teshaboev A. Yarimo’tkazgichlar fizikasi. T. 1999 yil.
5. A.Turdiev “Radioelektronika asoslari”. T. 1994 y.
6. I.Nigmatov “Radioelektronika asoslari”. T. 1998 y.
7. Таркиша. Ж.М. Основы физики полипроводников. М. 1982 год.
8. O‘zbekiston ensiklopediyasi.T. 4, 6 b, T10, 407 – 408, 186, 399 bb.
9. hhtps:/femto.com.ua/articles/part_1/2308.html
10. www.ziyonet
11. www.cribspublic.ru

SHAFFOF QUYOSH ELEMENTLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI OPTIMALLASHTIRISH

Sh.Sh. Qahramonova
Andijon davlat universiteti.

Bugungi kunda quyosh elementlarini juda ko’p joylarda juda ko’p qurilish jihozlarining o’rniga joydan yutish maqsadida foydalanilmoqda. Masalan Solar City kompaniyasi tomonidan qurilish hom ashyolaridan ko’ra uylarni tomini quyosh panellari bilan qoplash taklif etilmoqda. Bu birinchidan tomni qurish uchun sarflanadigan pulning bir qismini tejashga va quyosh paneli band qilishi mumkin bo’lgan joylarni iqtisod qilishga yordam beradi. Shuningdek, inshootlarni derazalariga ishlatiladigan oynalar o’rniga shaffof quyosh elementlaridan foydalanish mumkin. Bugungi kunda, shaffof quyosh elementlarini foydali ish koeffitsietini oshirishga bo’lgan qiziqish ortmoqda. Lekin ushbu soxada qilingan ilmiy izlanishlar soni juda oz. Shaffof quyosh elementlari asosan metal oksidlardan yasaladi. Chunki, metal oksidlarning aksariyatining ta’qiqlangan zona kengligi katta va bu uni asosan ultrabinafsha nurlarini yutushini ta’minlaydi. Shuning uchun ushbu materiallar shaffofdir. Eng yaxshi o’rganilgan shaffof quyosh elementi bu n-ZnO/p-NiO [1] quyosh elementidir. Ushbu ilmiy ishda asosiy ikki xil n-ZnO/p-NiO va n-TiO_2/p-NiO shaffof quyosh elementlari tadqiq qilindi. ZnO [2] va TiO_2 [3] ni emitter n tipli qatlam sifatida tanlanishiga sabab ushbu materiallar sintez jarayonida vakansiyalar tufayli n tip o’tkazuvchanlikka ega yarimo’tkazgich hosil bo’ladi. Ya’ni ushbu materiallarni Zol-Gel [4] metodida sintez qilinganda n-tipli o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. NiO [5] ni sintez qilinganda esa p-tipli o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. Shuning uchun oddiy Zol-Gel metodi yordamida n-ZnO/p-NiO va n-TiO_2/p-NiO shaffof quyosh elementlarini yasash mumkin. Rasm 1 da n-ZnO/p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini ZnO qatlam qalinligiga bog’liqligi tasvirlangan. Olingan natijalarga ko’ra, ZnO qatlam qalinligi 40 nm bo’lganda n-ZnO/p-NiO quyosh elementi maksimal 7.785% fotogeneratsiya koeffitsientiga erishdi. Ushbu struktura shaffof bo’lgani uchun uning fotogeneratsiya koeffitsienti juda past. Chunki, u asosan ultrabinafsha nurlarni yutadi va ko’rinarli soxadagi va infraqizil nurlar soxasidagi nurlarni yutmaydi va o’tkazib yuboradi. ZnO qatlam qalinligi 10 nm dan 40 nm gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti 0.55% ga ortdi va qalinlik 40 nm dan 100 nm gacha ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti 1.036% ga kamaydi. Demak n-ZnO/p-NiO struktura uchun emitter qatlamning optimal qalinligi 40 nm ga tengligi aniqlandi.



1-rasm . n-ZnO/p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini ZnO qatlam qalinligiga bog’liqligi

Yuqorida aniqlangan emitter qatlam qalinligi optimal bo’lgan n-ZnO/p-NiO quyosh elementining optik parametrlari aniqlandi. Rasm 2 da ZnO qatlam qalinligi 40 nm va NiO qatlam qalinligi 5 mkm bo’lgan n-ZnO/p-NiO quyosh elementining yutulish o’tish va qaytish koeffitsientlarini yorug’lik to’lqin uzunligiga bog’liqligi tasvirlangan. Ushbu spektral natijadan n-ZnO/p-NiO asosan ultrabinafsha soxadagi nurlarni yutayotganini ko’rishimiz mumkin. Qurilmaning shaffofligi ko’rinarli nurlar soxasida 75% ga teng qolgan 25% nur esa qaytib ketmoqda. Bu uni inshootlarga oyna sifatida foydalanish mumkinligini isbotlaydi. Albatta uning foydali ish koeffitsienti past lekin uyni past energiyali ehtiyojlarini qondirish uchun samarali foydalanish mumkin.



2-rasm . ZnO qatlam qalinligi 40 nm va NiO qatlam qalinligi 5 mkm bo’lgan n-ZnO/p-NiO quyosh elementining yutulish o’tish va qaytish koeffitsientlarini yourg’lik to’lqin uzunligiga bog’liqligi

Rasm 3 da n-TiO_2/p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini TiO_2 qatlam qalinligiga bog’liqligi tasvirlangan. Emitter qatlam qalinligi ortganda fotogeneratsiya koeffitsienti kamayishi aniqlandi. Shuning uchun ushbu struktura emitter qatlam qalinligi 10 nm bo’lganda eng maksimal fotogeneratsiya koeffitsienti 7.142% ga erishishi aniqlandi.



3-rasm . n-TiO_2/p-NiO quyosh elementining fotogeneratsiya koeffitsientini TiO_2 qatlam qalinligiga bog’liqligi

Rasm 4 da optimal emitter qatlam qalinligiga ega n-TiO_2/p-NiO quyosh elementining optik parametrlari tasvirlangan. U ham n-ZnO/p-NiO quyosh elementi singari asosan ultrabinafsha nurlarni yutishi ma’lum bo’ldi. Lekin uning n-ZnO/p-NiO quyosh elementidan afzallik jihati uning shaffofligi 78% ga tengligidir.



4-rasm . TiO_2 qatlam qalinligi 10 nm va NiO qatlam qalinligi 5 mkm bo’lgan n-TiO_2/p-NiO quyosh elementining yutulish o’tish va qaytish koeffitsientlarini yorug’lik to’lqin uzunligiga bog’liqligi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Kerli and Alver, “Preparation and characterisation of ZnO/NiO nanocomposite particles for solar cell applications,” *Journal of Nanotechnology*, vol. 2016, 2016, doi: 10.1155/2016/4028062.

2. D. C. Altamirano-Juarez *et al.*, “Properties of ZnO:AL Thin Films, Obtained by the Sol-Gel Method,” *MPLB*, vol. 15, no. 17–19, pp. 730–732, Aug. 2001, doi: 10.1142/S0217984901002403.

3. S. Xu *et al.*, “Stabilizing TiO2/CH3NH3PbI3 heterostructure and enhancing interface trap passivation for efficient and stable perovskite solar cells,” *Journal of Materials Chemistry C*, vol. 9, no. 31, pp. 9982–9989, Aug. 2021, doi: 10.1039/D1TC02812J.

4. L. Znaidi, “Sol–gel-deposited ZnO thin films: A review,” *Materials Science and Engineering: B*, vol. 174, no. 1–3, pp. 18–30, Oct. 2010, doi: 10.1016/J.MSEB.2010.07.001.

5. M. B. Islam, M. Yanagida, Y. Shirai, Y. Nabetani, and K. Miyano, “NiOx Hole Transport Layer for Perovskite Solar Cells with Improved Stability and Reproducibility,” *ACS Omega*, vol. 2, no. 5, pp. 2291–2299, May 2017, doi: 10.1021/ACSOMEGA.7B00538/SUPPL_FILE/AO7B00538_SI_001.PDF.

ATMOSFERA MUHITIDA ORGANIK QUYOSH ELEMENTLARINING FOTOELEKTRIK PARAMETRLARINING O‘ZGARISHI

N.M. Sobirova[1], M.H. Imomov[2]
[1]Namangan davlat universiteti, [2]Namangan davlat chet tillar instituti
mximomov@mail.ru

Quyosh fotoelementlariga qo‘yiladigan asosiy vazifalardan temperatura, mexanik ta’sirlar, kimyoviy hamda nurlanishlar ta’sirlariga chidamliligidan tashqari atmosfera muhitida barqaror ishlash talabi ham qo‘yiladi [1]. Chunki, bu kabi qurilmalarning tijoriy maqsadlarda ishlab chiqarila boshlangach, ularning real ish mexanizmlari jarayonlari hammamizga ma’lum bo‘lgan atmosfera muhitida kechadi. O‘rganilayotgan fullerenli va fullerensiz organik moddalar aralashmasidan iborat yupqa qatlamli fotoelementlarni atmosfera muhitidagi barqarorligini solishtirishda OQElarning samarali va barqaror hamda uzoq muddatli xizmat ko‘rsatishini taminlash uchun muhim xulosalar olishimiz mumkin. Shu sababdan P3HT:PCBM va P3HT:ITIS asosida OQElarini atmosfera muhitida samaradorlik va barqarorlik ko‘rsatkichlari tadqiq etildi.

1 va 2-rasmlarda atmosfera muhitida joylashgan P3HT:PCBM va P3HT:ITIC asosidagi OQEdagi V_{OC}, I_{sc} va EO‘S normallashgan qiymatlarining pasayish egri chiziqlarini keltirilgan. Tajribada o‘rganilayotgan ob’yektlar fotoelektrik parametrlarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi 1-8 soat davomida kuzatildi. Degradasiya jarayonlariga asosiy sabablardan biri kislorod va suv molekulalari hisoblanadi.



1 - rasm. Atmosfera muhitida joylashgan P3HT:PCBM asosidagi OQEda V_{oc} (doira), I_{sc} (uchburchak) va EO‘S (romb) qiymatlarining o‘zgarish egri chiziqlari.



2 - rasm. Atmosfera muhitida joylashgan P3HT:ITIC asosidagi OQEda V_{oc} (doira), I_{sc} (uchburchak) va EO‘S (romb) qiymatlarining o‘zgarish egri chiziqlari.

1 va 2-rasmlardan ko‘rinadiki, har ikkala OQElarda ham o‘zgarmas V_{oc}, I_{sc} i EO‘S qiymatlari qisqa vaqt ichida deyarli nolga tushadi. Bunday o‘zgarishlar o‘rganilayotgan OQElar turiga xos bo‘lib, ularning mexanizmi asosan yuqori katod qatlami Al ning tez oksidlanishi va uning yupqa qatlamga diffuzion tarqalishi bilan bog‘liq [2]. P3HT:PCBM asosidagi OQEdagi EO‘Sning kamayish davri taxminan 8 soatni tashkil etadi, bu boshqa ishlarda bo‘lgani kabi bir xil [3, 4]. Biroq, P3HT:ITIC ga asoslangan OQElarda EO‘Sning pasayish davri sezilarli darajada kichik bo‘lib, bir soatdan kam vaqtda deyarli to‘liq degradasiyaga uchrar ekan. P3HT:PCBM asosidagi OQE holatida Al elektrod yupqa qatlamining oksidlanishi va uning fotoaktiv qatlamga tarqalishi bilan aniqlangan va tushuntirilgan bir necha soatlik xarakterli degradasiya vaqti ushbu optik tadqiqot natijalariga to‘g‘ri keladi, P3HT:ITIC asosidagi OQEda esa bunday degradasiya davri juda qisqa ekan. Bir xil donor matrisali polimerga ega bo‘lgan, ammo har xil akseptor molekulali ikkita organik quyosh elementlarining degradasiya natijasida parchalanish tezligidagi bunday farq ularning fotoaktiv qatlamining o‘ziga xos tuzilishi bilan bog‘liq ekan.

Bir xil donor P3HT polimerli, ammo turli xil PCBM va ITIC akseptor molekulalari bo‘lgan OQElarning fotovoltaik va optik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish misolida, bunday qurilmalarning yutilish va fotolyuminessensiya spektrlari ma’lumot beruvchi vosita sifatida keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin, ya’ni EO‘Sning kamayishi va degradasiya darajasini, quyosh energiyasini o‘zgartirish qurilmalarining xizmat ko‘rsatishga yaroqli ekanligi kabi parametrlarini baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Morse G. E., Tournebize A., Rivaton A., Chassé T., Taviot-Gueho C., Blouin N., ... & Tierney S. The effect of polymer solubilizing side-chains on solar cell stability // Physical Chemistry Chemical Physics, 2015, Vol. 17. №. 17. – pp. 11884-11897.
2. Jørgensen M., Norrman K., Krebs F. C. Stability/degradation of polymer solar cells // Solar energy materials and solar cells, 2008, Vol. 92, №. 7. – pp. 686-714.
3. Cheng P., Zhan X. Stability of organic solar cells: challenges and strategies // Chemical Society Reviews, 2016, Vol. 45, №. 9. – pp. 2544-2582.
4. Kawano K., Pacios R., Poplavskyy D., Nelson J., Bradley D. D., & Durrant J. R. Degradation of organic solar cells due to air exposure // Solar energy materials and solar cells, 2006, Vol. 90, №. 20. – pp. 3520-3530.

KO‘NDALANG KVANTLOVCHI MAGNIT MAYDONIDAGI KVANT O‘RALI YARIMO‘TKAZGICHLARDA ENERGETIK HOLATLAR ZICHLIGI OSSILLYATSIYALARIGA HARORATNING TA’SIRI

U.I. Erkaboyev, J.I. Mirzayev
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
jasmirfir@gmail.com

Keling, ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydon ta’sirida kichik o‘lchamli qattiq jismlardagi holatlar zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligini ko‘rib chiqaylik. Ma’lumki, Landau sathlariga haroratning ta’sirini aniqlashda, energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalarini deltaga o‘xshash funksiyalar bo‘yicha qatorga yoyish usulidan foydalaniladi [1; 1323-1328-b. 2; 1650077-1-1650077-7-b.]. Delta shaklidagi funksiyalarning ketma-ket qatorga yoyish yo‘li bilan energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalarini o‘rganish orqali kvant o‘rali yarimo‘tkazgichlarda o‘tkazuvchanlik sohasini diskret Landau sathining haroratga bog‘liqligini tushuntirish mumkin bo‘ladi. Kvantlovchi magnit maydonda holatlar zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligi diskret Landau sathlarining termik kengayishi bilan aniqlanadi. Mutloq nol haroratda Gauss taqsimot funksiyasi delta shaklida bo‘lib, quyidagi ifoda bilan hisoblanadi [1; 350-400-b.):

$$Gauss\left(E,T\right)=\frac{1}{kT}\cdot\exp\left(-\frac{\left(E-E_i\right)^2}{\left(kT\right)^2}\right) \quad (1)$$

U holda, termik kengayishni Gauss taqsimot funksiyasini haroratga bog‘liqligi bilan tavsiflash mumkin. Cheksiz chuqur to‘g‘ri burchakli kvant o‘ra uchun, zaryad tashuvchilarning E_i chuqur sathidan o‘tkazuvchanlik sohasiga va E energiyali valentlik sohasiga termik chiqarish vaqti eksponent faktor $\exp\left(-\frac{\left(E-E_i\right)^2}{\left(kT\right)^2}\right)$ bilan belgilanadi. Demak, chuqur to‘ldirilgan diskret Landau sathlari eksponent sifatida energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalariga va haroratga bog‘liq. Energetik holatlarning zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligini aniqlash uchun T = 0 holatidagi energiya zichligi ma’lum energiya E_i (N_L, N_Z) funksiyasiga teng deb faraz qilamiz. Ikki o‘lchamli elektron gazlar uchun, ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydonda, holatlar zichligining ossillyatsiyalari (1) formula bo‘yicha hisoblanadi. Haroratning oshishi bilan har bir holat energiya $E_i(N_L, N_Z)$ bilan o‘zgaradi. Diskret Landau sathlarini E_i (N_L, N_Z) energiya bilan termik kengayishi Shokli-Rid-Xoll statistikasiga bo‘ysinadi [2; 5434717-1-5434717-1-b.]. Shunday qilib, o‘tkazuvchanlik va valent sohalarida, barcha holatlarning termik kengayishini hisobga olgan holda, hosil bo‘ladigan holatlar zichligi ossillyatsiyalari barcha termik kengayishlarni yig‘indisi bilan aniqlanadi. Demak kvant o‘rali yarimo‘tkazgichlar uchun T cheklangan haroratda energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalari $N_{S,Z}^{2d}\left(E,B,T,d\right)$ Gauss funksiyani qatorga yoyish orqali termik kengayishini (haroratga bog‘liqligini) tushuntirishga imkon beradi.

(1) formulada diskret Landau sathining termik kengayishlari hisobga olinmaydi. Agar $N_{S,Z}^{2d}(E,B,T,d)$ ni Gauss funksiyalari bo‘yicha qatorga yoyib kengaytirsak, u holda ikki o‘lchamli elektron gazlardagi energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligini hisoblash mumkin. Bundan, ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydonidagi energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligini olish mumkin. Ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydonda Landau sathining termik kengayishi diskret sathlarning silliqlashiga olib keladi va termik kengayish Gauss funksiyasi yordamida

aniqlanadi. Past haroratlarda Gauss taqsimot funksiyalari delta shaklidagi funksiyaga aylanadi:

$$\underset{T\to 0}{Gauss}\left(E,E_i,T\right)\to\delta\left(E-E_i\right)$$

Yuqoridagi formulalar yordamida biz quyidagi analitik ifodani olamiz:

$$N_{S,Z}^{2d}\left(E,B,T,d\right)=\sum_{N_L,N_Z}^{\infty}\frac{eB}{\pi\hbar}\cdot\frac{1}{kT}\cdot\exp\left(-\frac{\left(E-\left(\hbar\omega_c\left(N_L+\frac{1}{2}\right)+\frac{\pi^2\hbar^2}{2m^*d^2}N_Z^2\right)\right)^2}{\left(kT\right)^2}\right) \quad (2)$$

Bu yerda, $N_{S,Z}^{2d}(E,B,T,d)$ - to‘g‘ri burchakli kvant o‘ra uchun energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalari; d - kvant o‘raning qalinligi; N_L - to‘g‘ri burchakli kvant o‘ra uchun Landau sathlari soni; N_Z - Z o‘qi bo‘ylab o‘lchamli kvantlar soni; B - ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydonining induksiyasi.

Bu formula ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydon ta’siridagi kvant o‘rali yarimo‘tkazgichlarda, energetik holatlar zichligi ossillyatsiyasining haroratga bog‘liqligini anglatadi. Olingan ifoda turli harorat va ko‘ndalang magnit maydonda, ikki o‘lchamli elektron gazlarda energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalari bo‘yicha eksperimental ma’lumotlarni qayta ishlash uchun qulaydir. Shunday qilib, nanoo‘lchamli yarimo‘tkazgichlardagi energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligini ifodalaydigan yangi matematik model ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan model yordamida kvantlovchi magnit maydondagi nanoo‘lchamli yarimo‘tkazgichlarning energetik xolatlar zichligini haroratga bog‘liqligini tahlil qilaylik. Ushbu ishda [4; 1274-1279-b.], HgCdTe / CdHgTe kvant o‘rali assimetrik yarimo‘tkazgichlarda klassik va kvantlovchi magnit maydonlar ta’siridagi erkin elektronlarning siklotron rezonans spektrlarining o‘zgarishi o‘rganilgan. Bu yerda $Cd_xHg_{1-x}Te$ kvant o‘raning qalinligi d = 15 nm, magnit maydoni B=15 T va harorati T = 4,2 K ni tashkil etadi. Bu ishda materiallar uchun energetik holatlar zichligining haroratga bog‘liqligi muhokama qilinmagan. ko‘ndalang kvantlovchi magnit maydon B = 15 Tl. va harorat 4.2 K bo‘lganda kvant o‘raning qalinligi d=15 nm uchun $Cd_xHg_{1-x}Te$ ni energetik holatlar zichligi ossillyatsiyalari keltirilgan. Kvant o‘raning o‘tkazuvchanlik sohasidagi diskret energetik sathlari (3) formula bo‘yicha hisoblangan. Bunda diskret energetik sathlari soni 10 ga teng. Har bir diskret energiya cho‘qqilari Landau sathlari deyiladi. Grafikda diskret Landau sathlarini kuzatilishiga sabab, B=15 Tl da, $\hbar\omega_c=0{,}02eV$, T = 4.2 K da kT=4.10-4 eV hamda $\frac{\hbar\varpi_c}{kT}=50$ yoki $kT\ll\hbar\omega_c$ sharti bajariladi. Bunday holda Landau sathining termik kengayishi juda kuchsiz va energetik holatlar zichligining ossillyatsiyasi, ideal shakldan chetga chiqishni sezmaydi. Birinchi diskret Landau sathi (N_L=0) kvant o‘raning o‘tkazuvchanlik sohasining pastki qismida paydo bo‘ldi. Ikkinchi (N_L=1), uchinchi (N_L=2) va boshqa diskret Landau sathlari kvant o‘raning o‘tkazuvchanlik sohasi tubidan yuqorida joylashgan. Shu tarzda, past haroratlarda kvant o‘raning valentlik sohasida ham Landau sathining cho‘qqilarini hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Sharibaev N.Yu. The de Haas-van Alphen effect at high temperatures and in low magnetic fields in semiconductors // Modern physics letters B. 2016. Vol. 30, No.7. pp.1650077-1-1650077-7.
2. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Baymatov P.J. Determination of the density of energy states in a quantizing magnetic field for model Kane // Advances in condensed matter physics. 2016. Vol.2016. pp.5434717-1-5434717-1.
3. Gulyamov G., Erkaboev U.I., Gulyamov A.G. Influence of pressure on the temperature dependence of quantum oscillation phenomena in semiconductors // Advances in condensed matter physics. 2017. Vol.2017. pp.6747853-1-6747853-6.
4. Бовкун Л.С., Маремьянин К.В., Иконников А.В., Спирин К.Е., Алешкин В.Я., Potemski M., Piot B., Orlita M., Михайлов Н.Н., Дворецкий С.А., Гавриленко В.И. Магнитооптика квантовых ям на основе *HgTe/CdTe* с гигантским расщеплением Рашбы в магнитных полях до 34 Тл // ФТП. 2018. Т.52, вып.11, С.1274-1279.

QUTBLANGAN YORUG’LIKNING XIRA VA IZATROB MUXITLARDA KO’CHIRILISHIDA,SOCHILISHI TUFAYLI NEYTRAL NUQTALARNI XOSIL BO’LISHI.

M.M. Sobirov[1], G.M. Qo’ziboyeva[1], I.M. Usmonov[2]
[1]Farg’ona davlat universiteti, [2]TATU FF Akademik litseyi

Bu tabiiy, qutblanmagan nurlanish oqimini qalinligi chekllangan xira muxitlarga tushib, muxitda sochilishi tufayli undan o’tgan va orqaga qaytgan nurlanish oqimini qutblanishini o’rganishga bag’ishlangan. Bu masala Quyoshdan tushayotgan tabiiy nurlanishni atmosfera qatlamlaridan o’tishida, qutblanishini taxlil etish masalasi bilan uzviy bog’langan. Chunki, keyingi yillarda atmosfera qatlamlarini kosmik apparatlar orqali zondlash orqali Yer sirtidagi va atmosfera qatlamlarida fizik jarayonlarni kuzatish masalalari, atmosfera fizikasining dolzarb masalalaridan biri xisoblanadi. Qutblanish usullaridan foydalangan holda zondlar yordamida Yer yuzini o'rganish usullari paydo bo'lishi bilan qutblangan nurlanishning atmosfera qatlamida o'tkazilishini o'rganishga bo’lgan qiziqish ortdi . Bizning ilmiy ishlarimizda yakuniy optik qalinlikdagi muhitda qutblangan nurlanishni o'tkazish nazariyasi bayon etilgan edi. U yerda qutblangan nurlanish o'tkazmasini hisoblash usuli Chandrasekar tomonidan qurilgan va keyinchalik Lenobl va E.L.Ivchenko va boshqalar tomonidan umumlashtirilgan nurlanishni uzatish nazariyasi doirasida ilgarisurilgan . Qurilgan nazariya yordamida atmosfera qatlamlari orqali diffuz aks etgan va diffuz o’tgan tabiiy qutblanmagan quyosh nurlanishining qutblanish darajalari hisoblab chiqilgan. Yorug'likning burchagi, optik qalinligi va muhitning optik parametrlariga qarab asosiy e'tibor Babine, Bryuster va Arago neytral nuqtal arining burchak xossalarini o'rganishga qaratildi.

Yorug'lik tarqatuvchi qattiq jismlarda yoki suyuqliklarda atmosferadan farqli o'laroq, muhitning dielektrik o'tkazuvchanligi yuqori. Shu sababli, mazkur model yordamida bunday muhitlar ikkilamchi nurlanishining qutblanish xossalarini o'rganish amaliy ahamiyatga ega va mutaxassislarning e'tiborini jalb qiladi deb umid qilamiz.



1-rasm.Qutblanish darajasi minimumini sindirish ko’rsatkichini qiymatiga bog’liqligi



2-rasm.Ko’zgusimon qaytish tufayli fazalar farqini o’zgarishini muhitning sindirish ko’rsatikichiga bog’liqligi.

$\tau \to \infty$ da, yakuniy optik qalinlikdagi muhitlarda hisoblab chiqish natijalari yarimcheksiz muhit modeliga o'tib ketadi . Mazkur holatda, teskari aks etgan nurlanishning

jadalligi va qutblanishi optik qalinlikka bog'liq emas va o’tkazish tenglamasining yechimida faqat albedo parametri – bir martalik tarqalishning kvant chiqishi qoladi. Ushbu soddalashtirishga qaramay, teskari aks ettirilgan nurlanish xossalarida, yakuniy qalinlikdagi muhit holatida kuzatilgan barcha neytral nuqtalarga tegishli barcha xossalar saqlanib qoladi. Burchak xossalari sifat jihatidan aks ettirilgan nurlanish uchun yakuniy qalinlikdagi muhit holatida bo’lgani kabi bir xil xossaga ega.

Xulosa.

1. qutblanmagan yorug’lik oqimining kengligi cheklangan xira muxitlardan o’tishi jarayonida qutblanishi maslasi taxlili etilgan. Tushayotgan va undan qaytgan nurlanish oqimini tarqalish tekisigi bo’ylab nurlanishning qutblanish darajasini azimutal xarakteristikalari o’rganilgan.
2. Tushgan va undan qaytgan nurlanish oqimini tarqalish tekisligda qutblanish darajasi nolga teng bo’lgan neytral nuqtalarning xosil bo’lish mexanizmlari taxlil etilgan. Yarim cheksiz muxitlarda neytral nuqtalarning tushish va qaytish polyar burchaklarga bog’liq ravishda o’zgarishi ko’rsatib berilgan.
3. Yarim cheksiz dielektrik krituvchanligi yuqori bo’lgan muxitlar uchun qutblanagan nurlanish oqimini ikki muxit chegarasidan o’tishida sinishi va qaytishi, kristall-vakuum chegarasida to’la ichki qaytishini xisobga olganda, chiqayotgan ikkilamchi nurlanish oqimini qutblanish darajasi qanday o’zgarishi taxlil etilgan.

ADABIYOTLAR

1. М.Борн, Е.Вольф. Оптика. Москва, Иностранная литература, 1992.
2. С.И. Савелев. Умумий физика курси, 3-том. Москва, Просвещение, 1998.
3. С.Э.Фрищ. Умумий физика курси. 3-том. Москва, Просвещение, 1992.
4. И.В. Савельев Умумий физика курси 2-том. Москва, Наука,1988. 496с
5. С.Э.Фрищ. Умумий физика курси. 3-том. Москва, Просвещение, 1992.
6. Агранович В.М. , Галанин М.Д. *Перенос энергии электронного возбуждения в конденсированнқх средах.* Мосвка, Наука,1978. 383с
7. В.И.Агранович, С.Г.Гинзбург. Кристаллооптика и пространственная дисперсия.
8. Е.Нокс. Теория экситонов. Ленинград. Иностранная литература. 1986.
9. В.И.Агранович, Кристаллооптика и теория экситонов. Москва. Наука, 1988.
10. Modern Problems in Condensed Matter Sciences, vol. 2, Yexcitons. Yed.by Rashba Ye. I., Sturge M. D. Amsterdam, North - Holland, 1982, chapters 2,3, 6.
11. Чандрасекар С. *Перенос лучистой энергии*. Москва, Иностраннаялитература, 1953.
12. В.В.Соболев, Перенос лучистой энергии в атмосферах звезд и планет. Москва, Гостехиздат,1956.

ОПТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ШИРОКОЗОННЫХ ПОЛУПРОВОДНИКОВ $LiNbO_3$ И $LiNbO_3$:Fe

З.Т. Азаматов[1], М.А. Йулдошев[2], Н.Н. Базарбаев[3], А.Б. Бахромов[2]
[1]доктор физико-математических наук, профессор, [2]докторант НИИ физики полупроводников и микроэлектроники, [3]старший научный сотрудник НИИ физики полупроводников и микроэлектроники
murod.yuldoshev1993@gmail.com

Среди перспективных регистрирующих материалов для создания голографических систем оптической обработки информации, особое место занимают фоторефрактивные кристаллы, номинально чистого легированного ионами железа в различных концентрациях, ниобата лития [1]. Запись информации в сегнетоэлектрических кристаллах основана на эффекте локального обратимого изменения показателя преломления в этих кристаллах при освещении лазерным лучом. На фотоэлектрические свойства, исследуемых образцов, влияет спонтанная поляризация, с изменением которой, под воздействием света, появляется внутреннее поле, которое способствует перераспределению носителей и образованию пространственного заряда. Поле пространственного заряда, вследствие электрооптического эффекта, вызывает изменение показателей преломления вещества.

Чувствительность к оптически индуцированному изменению показателя преломления может быть выражена через параметры материала следующим образом.

$$\frac{dn_e}{dJ} = el\left(\frac{n_e^3}{2}\cdot\frac{r_{33}}{\varepsilon_0\varepsilon_{33}}\right)\frac{\alpha\beta}{\hbar\omega} \quad (1)$$

где $\frac{dn_e}{dJ}$ – энергетическая чувствительность, el – изменение электрического дипольного момента, механизм которого может быть различным для разных материалов и условий эксперимента.

В наиболее распространенном случае, дрейфа фотовозбужденных электронов во внутреннем или внешнем электрическом поле, дрейфовая длина пробега электрона определяется выражением ($l = \mu\tau E_0$), которое обусловлено электрооптическим эффектом. Выражение $\alpha\beta/\hbar\omega$ дает число возбужденных центров или количество фотоэлектронов в зоне проводимости. Легирование переходными металлами, нарушение стехиометрии, отжиг в восстановительной атмосфере, облучение γ-лучами и приложение электрического поля позволяют значительно увеличить их светочувствительность.

В работе проведены сравнительные исследования спектральных характеристик кристаллов $LiNbO_3$. Исследованы как номинально чистые, так и легированные Fe, с массовой концентраций железа – 0,03 %, кристаллов ниобата лития – $LiNbO_3$ и $LiNbO_3$:Fe. *Образцы для исследований были изготовлены из номинально чистых кристаллов* $LiNbO_3$ и $LiNbO_3$:Fe, *в виде параллелепипедов с размерами 2×3×10 мм, ребра которых ориентированы по направлению кристаллографических осей.* В настоящей работе использовался голографический метод измерения Δn. *Исследования спектров* поглощения *проведены с помощью спектрометра “Shimadzu”. Измерения проводились в диапазоне 320-1100 нм с шагом 1 нм.* Обработка спектров производилась с использованием пакета программ Origin 8.1. Ширина запрещенной зоны определялась по формуле:

$$E = \frac{hc}{\lambda} \quad (2)$$

где λ– длина волны, соответствующая краю поглощения, h – постоянная Планка, c – скорость света в вакууме.

Принципиальным вопросом при анализе механизма образования оптического повреждения Δn (изменения показателя преломления) является вопрос о его зависимости от длины волны облучающего света λ. Эта зависимость позволяет судить об обменах электронами между возбужденными и не возбужденными ионами железа, с переходом электронов в зону проводимости.

По нашему мнению, это обусловлено существенным увеличением изменения показателя преломления $LiNbO_3$:Fe при λ<500 нм, которое приведено на рис. 1.



Рис. 1. Зависимость изменения показателя преломления кристаллов $LiNbO_3$:Fe от длины волны записывающего излучения

Изменение показателя преломления Δn вычислялось из величины дифракционной эффективности η по формуле:

$$\Delta n = [\lambda \cos\frac{\theta}{2}/\pi D]\arcsin\sqrt{\eta} \qquad (3)$$

где λ – длина волны считывающего излучения; θ – угол между интерферирующими лучами. Значения Δn во время записи информации могут изменяться от 10^{-5} до $5\cdot10^{-5}$.

На рис. 2 приведены спектры поглощения номинально чистого и легированного железом ниобата лития $LiNbO_3$:Fe, из которого видно, что добавление примеси значительно увеличивает поглощение.

Известно, что использование переходных металлов в качестве легирующих добавок связано с их способностью обратимо отдавать d-электроны в зону проводимости под действием излучения. При легировании кристалла ионами Fe^{3+} поглощение света в нем вызывается ионизацией. Чувствительность к свету кристаллов, легированных железом, определяется концентрацией ионов Fe^{2+}, имеющих в решетке широкую полосу поглощения с максимумом около 400 нм. При фотовозбуждении Fe^{2+} отдает фотоэлектрон в зону проводимости, который в процессе диффузии захватывается ионом Fe^{3+} в неосвещенной области. С ростом концентрации Fe^{2+} увеличивается поглощение



Рис. 2. Спектры поглощения номинально чистого и легированного железом ниобата лития $LiNbO_3$:Fe

на длине волны, на которой записывается информация, что приводит к повышению чувствительности кристалла к свету.

Равиндра и др. [2] предложили различные соотношения между шириной запрещенной зоны и высокочастотным показателем преломления и представили линейную форму n как функцию E_g:

$$n = \alpha + \beta E_g \quad (4)$$

где α = 4,048 и β = -0,62 эВ$^{-1}$.

Эрве и Вандамм [3], учитывая простоту физики преломления и рассеивания света, предложили эмпирическое соотношение:

$$n = \sqrt{1 + \left(\frac{A}{E_g + B}\right)^2} \quad (5)$$

где A = 13,6 эВ и B = 3,4 эВ.

Рассмотрев зонную структуру и квантовую формулировку Пенна и Ван Вехтена [4], Гош и др. [5] по-иному подошли к проблеме. Они, приняв A – как вклад валентных электронов, B – как постоянную добавку к наименьшей запрещенной зоне E_g, получили выражение для высокочастотного показателя преломления:

$$n^2 - 1 = \frac{A}{(E_g + B)^2} \quad (6)$$

где A = 25Eg + 212, B = 0,21E_g + 4,25 и (E_g + B) относятся к соответствующей ширине запрещенной зоны материала. Таким образом, индийскими и другими исследователями были предложены три эмпирической формулы для определения изменений n в зависимости от ширины запрещенной зоны – E_g.

Показатели преломления образцов были рассчитаны по трем моделям изменения n в зависимости от энергетической щели, $n_{экс}$ – определены интерференционным методом. Расчетные значения оптической диэлектрической проницаемости (ε_∞) были получены с использованием соотношения $\varepsilon_\infty = n^2$ [6]. Увеличение толщины образцов приводит к общему увеличению показателя преломления. Это увеличение связано с общим снижением пропускания образца по мере увеличения его толщины. Расчитанные показатели преломления и оптические диэлектрические проницаемости приведены в таблице.

Таблица

Результаты определенных: геометрически – E_g, эмпирически – показателей преломления и оптические диэлектрические проницаемости (ε_∞) номинального чистого и легированного железом кристаллов ниобата лития

образец	E_g (эв)	n, рас	n, экс	ε_∞, рас	ε_∞, экс
$LiNbO_3$	3,39	1,9462 n[3] 2,2387 n[4] 2,2922 n[5]	2,2971	3,7877 5,0118 5,2542	5,2767
$LiNbO_3$:Fe	3,17	2,0826 n[3] 2,2989 n[4] 2,3356 n[5]	2,3285	4,3372 5,2849 5,4550	5,4219

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Азаматов З.Т., Йўлдошев М.А., Базарбаев Н.Н. Перспективы голографических систем хранения информации. // ДАН АН РУз., №1. Ташкент 2022 г. с. 17-21.
2. Ravindra N. M., Auluck S., Srivastava V. K. On the Penn gap in semiconductors. // Phys.Status Solidi (B) 93, pp. 155–160 (1979).
3. Herve P. J. L, Vandamme L. K. J. Empirical temperature dependence of the refractive index of semiconductors. // J. Appl. Phys. 77, pp. 5476–5477 (1995).
4. Penn D. R. Wave-number-dependent dielectric function of semiconductors. // Phys. Rev.128, pp. 2093–2097 (1962).
5. Ghosh D. K., Samanta L. K., Bhar G. C. A simple model for evaluation of refractive indices of some binary and ternary mixed crystals. // Infrared Phys. 24, pp. 43–47 (1984).
6. G.A. Samara, Temperature and pressure dependences of the dielectric constants of semiconductors. Phys. Rev. B 27, 3494–3505 (1983).

O‘LCHASHDA QO‘LLALADIGAN OPTOEKEKTRON SILJISH O‘ZGARTIRGICHLARI TAHLILI

R.A. Nurdinova, A.X. Rajabov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali
e-mail: nurdinovar2016@mail.ru

Chiziqli va burchakli siljishlarning optik-elektron o‘zgartirgichlarining tasnifi vaqt o‘tishi bilan sezilarli o‘zgarishlarga uchragan optoekektron siljish o‘zgartirgichlari (OESO‘)ni to‘liq tasniflaydi. Shuning uchun ularni qurish va amalga oshirishning zamonaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda OESO‘ tasnifi taklif etiladi (1 -rasm).



1 -rasm. Optoekektron siljish o‘zgartirgichlari klasifikasiyasi

O‘zgartirilayotgan koordinatalar turiga qarab, avvalgi yillardagi kabi [6], OESO‘ni burchakli va chiziqli bo‘lish odatiy holdir. Aniq burchak o‘zgartirish o‘tkazgichlari - boshqariladigan ob'ektning burchak holatining analog qiymatini, masalan, val, analog elektr signallarining parametrlari (amplitudasi, chastotasi, fazasi va boshqalar) ko‘rinishida ifodalash uchun mo‘ljallangan murakkab optoelektronik qurilmalar. diskret signallar shakli (raqamli kod). Chiziqli siljish transduserlari xuddi shunday boshqariladigan ob‘ektning chiziqli koordinatalarini o‘zgartiradi.

OESO‘ning kichik sinflarga bo‘linishi kodlovchi struktura (KS)ni shakllantirishning asosiy usullari (ishchi choralar) bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin: nuqtaviy, interferentsion-diffraktsion va gologrаfik. Nuqtaviy KS - bu o‘lchovning ishchi yuzasiga ma’lum vaqt oralig‘ida qo‘llaniladigan shtixlar ketma-ketligidir. Bunday KSlarda shtrix uzunligi shtrix balandligidan ancha katta bo‘lib, tahliliy struktura (TS)ning KS ga nisbatan harakatlari natijasida hosil bo‘gan kombinatsion chiziqlar siljishi hisoblanadi. Chiziqli va burchakli siljishlarning optoelektron konvertorlari (OEK) nuqtaviy, interferentsion-diffraktsion va gologrаfik (to‘planuvchi) kvazi-mutlaq ketma-ket hisoblash parallel o‘qish interpolyatsiya bilan mutlaq to‘g‘ridan-to‘g‘ri konvertatsiya interpolyatsiyasiz muvozanatlashtiruvchi transformatsiyaladi.

Algoritmlarga muvofiq mavjud konvertorlar fazoviy harakatlarni raqamli kodga to‘g'ridan-to‘g'ri o‘zgartirish ikki guruhga bo‘lish tavsiya etiladi: konvertorlarni ketma-ket hisoblash va parallel o‘qish konvertorlari.

Ketma-ket hisoblash algoritmining mohiyati quyidagilardan iborat, o‘lchangan qiymat bir qator teng qismlarga bo‘linadi, (o‘sish bo‘yicha), ularning har biriga raqamli kodning

kichik toifasi bo‘lgan birlik mos keladi. Ushbu o‘sishlarni hisoblashda kod olinadi-o‘lchangan qiymatning raqamli ekvivalenti.

Parallel o‘qish algoritmining mohiyati quyidagilardan iborat: o‘lchangan qiymat o‘ziga xos, oldindan taqqoslanganligi barcha mumkin bo‘lgan raqamli ekvivalentlar to‘plami bilan tayyorlangan. Ichida o‘lchangan qiymat qiymatiga bog‘liqlik o‘qiladi, qaysiki, fazoviy tuzilishdan ma'lum bir raqamli ekvivalent bu ish o‘lchovidir.

O‘z navbatida, ketma-ket hisoblash konvertorlari boshqariladigan ob‘ektning joriy koordinatasini aniqlash usuli uchta kichik guruhga bo‘lish mumkin: qo‘shimcha konvertorlar, kvazi-mutlaq va mutlaq.

Qo‘shimcha (saqlash) konvertor javob bermaydi fazoviy pozitsiya va fazoviy harakat, maxsus sxema yordamida bir qator elementar qismlarga o‘sish bo‘linadi.

Ushbu o‘sishlarni hisoblash orqali to‘plash, transduser mutanosib raqamli kodni hosil qiladi o‘lchanadigan fazoviy holat yuzaga keladi. Kvaziabsolyut konvertorlari holatida joriy koordinata ketma-ket o‘sishni hisoblash orqali aniqlab boshlaydi (yig'uvchilar singari) faqat mos yozuvlar belgisini o‘tkazgandan so‘ng uni qayd etish mumkin. Mutlaq konvertorlar o‘tishni talab qilmaydi hamda mos yozuvlar teglari va joriy koordinata darhol aniqlanadi.

Shunday qilib, mutlaq transduserlarda har biri kirish harakatining qiymati raqamli qiymatga mos keladi, chiqishda hosil bo‘ladigan ekvivalent esa qoida tariqasida raqamli kod sifatida beriladi. Yuqori chiziqli yoki burchakli piksellar soniga erishish ehtimol, pozitsiyani aniqlash usulidan foydalanish tufayli qadam chegaralaridagi fazoviy tuzilish yoki boshqacha qilib aytganda, interpolatsiya usulini qo‘llash imkonini beradi: kattaroq qadam bilan maxsus kod shkalalarini qo‘llash.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Datchiki: Spravochnoe posobie /Sharapov V.M., Poliщuk Ye.S., Ishanin G.G i dr./Pod. red. Sharapova V.M., Poliщuka Ye.S., Cherkassы, 2008, 1072 s.
2. Porfirev L.F. Osnovы teorii preobrazovaniya signalov v optiko-elektronnых sistemax. L.: Mashinostroenie, 1989. - 387 s.
3. Fotoelektricheskie preobrazovateli informatsii /Presnuxin L.N., Shangin V.F. i dr. M., «Mashinostroenie», 1974. - 376 s.
4. Malamed Ye.R. Fotoelektricheskie preobrazovateli lineynых peremeщeniy na difraksionnых reshetkax. Uchebnoe posobie, LITMO, 1990. - 45 c.
5. Gorodeskiy A.Ye., Tarasova I.L., Artemenko Yu.N. Interferensionno- kodovыe preobrazovaniya. — SPb.: Nauka, 2005. - 472 s.

ERUVCHANLIK VA GERMANIY TAGLIKDA $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ QATTIQ ERITMALARNI OLISH TEXNALOGIYASINI O’RGANISH

Q.A. Yo’ldashev, A.A. Abdullayev
[1]Namangan Muhandislik Qurulish Instituti, o’qituvchisi
yoldashevqodirjon11@gmail.com

Hozirgi vaqtda A^3B^5 иA^4B^4, A^2B^6 asosidagi yarim o'tkazgichli qattiq eritmalar o'zining noyob xususiyatlari tufayli mikroelektronikaning turli sohalarida keng qo'llaniladi va ba'zi qurilmalar uchun ular o’zgartirib bo’lmas materiallarga aylanadi.

Shu munosabat bilan Ge,GaAs ning past haroratlarda Pb dagi eruvchanligini va ularni o‘stirish usullarini takomillashtirish, yangi yarimo‘tkazgichli konstruksiyalarni ishlab chiqarish maqsadida allaqachon ma’lum bo‘lgan yarimo‘tkazgichli qattiq eritmalarni olish shartlarini o‘rganish juda muhim yo‘nalish hisoblanadi.

A^3B^5, A^4B^4 qatlamlarini o'stirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri suyuq fazali epitaksiya usuli hisoblanadi.

Suyuq fazada kristallanish jarayonini nazorat qilish va tarkibiy qismlar va aralashmalarning kerakli taqsimoti bilan qattiq eritmalarni olish uchun fazalar muvozanati va suyuqlik fazasidagi komponentlar va aralashmalarning o'zaro ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar talab qilinadi.

Ushbu maqolada Pb-Ge-GaAS tizimlarida fazalar muvozanatini o'rganish bo'yicha eksperimental va hisoblash ma'lumotlari, germaniy substratlari bo'yicha ushbu tadqiqotlar natijalari asosida qattiq eritmalar $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$ olinadi.

Ge va GaAs larning qo‘rg‘oshindagi eruvchanligini o‘rganish bo‘yicha tajribalar biz tomonidan shudring nuqtasi t = 60÷65°C bo‘lgan tozalangan vodorod atmosferasida o‘tkazildi. Vodorodning tozaligi har safar tajribadan oldin va keyin o'lchangan.

Shunday qilib, biz Ge va GaA larning qo'rg'oshindagi eruvchanligiga eruvchanligi va o'zaro ta'sirini o'rgandik.

Ge va GaAs ning suyuq metall erituvchilarda eruvchanligi, shuningdek ularning o'zaro ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, qo'rg'oshinni erituvchi sifatida ishlatish "maxsus" sharoitlarni ta'minlaydi [1]. haqiqiy qattiq eritmalar $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$. Eruvchanlikni o'rganish vazn yo'qotish usuli bilan amalga oshirildi va jarayon davomida eritma-eritma doimiy ravishda aralashtiriladi.

Birinchi marta pirolitik sintez yo'li bilan Ge - GaAs tizimi asosida metastabil uzluksiz qattiq eritmalar tayyorlash haqida [2] xabar berilgan, unda bunday bog'liqliklar panjara parametri va olingan qattiq eritmalarning tarmoqli oralig'iga bog'liq $(Ge_2)_{1-x}(GaAs)_x$. Ish [3] ushbu qattiq eritmalarning elektrofizik xususiyatlarini keyingi tekshirishga bag'ishlangan.

